جدید

2026-yil 10-aprel
№ 15 (119)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

FAXRIYA



Chin Istiqlol tufayli xalqimiz o‘z tarixini, o‘tmishini va ulug‘ ajdodlarini qaytadan kashf etish imkoniga ega bo‘ldi. Shunday buyuk shaxslardan biri – Amir Temur hazratlaridir.

Kecha, 9-aprelda Sohibqiron tavallud kuni munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahridagi Amir Temur xiyoboniga tashrif buyurib, mashhur davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Amir Temur haykali poyiga gulchambar qo‘ydi.

Qaror ijrosi doirasida dunyodagi mashhur muzeylarning eng ilg‘or tajribalarini qo‘llagan holda Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosi rekonstruksiya qilindi, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlandi.

Raqamlashtirish orqali muzey imkoniyatlari kengaytirilib, ekspozitsiyalari yangilandi, jumladan, xorijdagi to‘plamlardan xarid qilingan eksponatlar bilan boyitildi.

(Davomi 3-sahifada).

BUGUNNING SHE’RI

BUYUK TEMURIYLAR

**Uyg‘otur dunyoni tafakkur bongi,
Qilichlar jarangi hurkitguvchidir.
Xaloskor tojida hurriyat tongi,
Fotih inoyati qo‘rqitguvchidir.**

**Adolat qinidan chiqarkan shamshir,
Uzlatga talpinar notinch o‘lkalar.
Odil rahnamoga xalqlar muntazir,
Zulmkor yuzlarda kulrang ko‘lkalar...**

**Dunyoni jaholat uyqusi eltib,
Beshikdan tobutga ko‘chdi ne umr.
Bashar duolari Tengriga yetib,
Turonni titratib hayqirdi Temur!**

**Ona Sharqim ko‘zin ochdi Haqiqat,
Achomlab, tarbiyat etdi Ma’rifat.
Turkiy sulolaga qaytdi Saltanat,
Buyuk Temuriylar tikladi Davlat.**

**Temurbek qadami yetsaki qayon
Bog‘lar yuz ochadi, binolar bunyod.
Kim tinchlik tarafda: omon, al-omon,
Fosiqlar tug‘rosi barboddir, barbod.**

**Naqd yetti asrlik dunyo tarixi
Ko‘ragon ilkidan ayro emasdir.
Bobomsiz notugal Ovrupo tarhi,
Bobomsiz dunyo ham raso emasdir.**

**Temuriy bog‘larga o‘zbegim voris,
Merosdir shior-u ilm-u a’moli.
Yangi tuzuklarda jamul-jam shaksiz
Oltin avlodimning baxt-u kamoli.**

Otabek BAKIROV

AMIR TEMUR TAVALLUDINING 690 YILLIGI



QO‘RQUNCH BIR JASORAT TARIXI

Bugun Yangi O‘zbekistonda Buyuk Temuriylar nomini jahoniy miqyosga ko‘tarish yo‘lida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Temur tuzuklari” asarining ilmiy izohli matnini xorijiy tillarga o‘girib, chop etish yo‘lga qo‘yildi. Bu asar tarjimasi borasida inqilobiy jasoratga qo‘l urgan shaxs alloma Alixonto‘ra Sog‘uniy hazratlari edi.

Tarixni qurol emas, qalam o‘zgartirgan davrlar bo‘lgan. Ayniqsa, millat ildizlari xotira obi hayotidan uzib qo‘yilgan chog‘larda birgina harakat ham jasorat va mahorat mevasi o‘laroq, butun bir avlodning dunyoqarashini o‘zgartirishga qodir bo‘ladi.

(Davomi 3-sahifada).

NAJOT YO‘LI



O‘zFA Mikrobiologiya instituti direktori, biologiya fanlari doktori Shahlo MIRALIMOVA bilan suhbat

– Shahlo opa, akademik Ilhom Sodiqov shunday degandi: “Ilm-fan olamida narsalar o‘z mohiyatini o‘zgartiradi, aniqrog‘i, asl mohiyatiga ko‘ra baholanadi. Yadro fizikasidan ajal quroli yasashda ham, hayotni saqlab qoluvchi dorilar yaratishda ham foydalansa bo‘ladi”. Xuddi shuningdek, “mikrob” deganda kasallik tarqatuvchilarni tushunadi omma. Ammo ilmda ularga nazar o‘ngdan tushgan ko‘rinadi...

– Domlamiz juda to‘g‘ri ta’rif beribdi. Inson hayoti uchun eng muhim mavjudotlar qaysi, deyilsa, ko‘pchilik hayvonlar yoki o‘simliklarni tasavvur qiladi. Aslida, javob – ko‘zga ko‘rinmas mikroorganizmlardir. Bolalikdan “qo‘lingni yuv, mikroblar bor, kasal bo‘lasan”, degan gaplarni eshitganmiz. Ongimizda mikroblar salbiy tasavvur qoldirgan. Tabiatdagi mikroorganizmlarning atigi 3 foizi kasallik chaqiradi, 97 foizi esa inson uchun foydali yoki zararsizdir.

Mikroorganizmlar ham bir-biriga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Ya’ni, foydali mikroblar kasallik chaqiruvchilariga “urush ochadi”. Immunitetimizning qariyb 70 foizi ichak mikroflorasi bilan bog‘liq. Shunga asoslanib, oshqozon yarasining mikroblar sababli yuzaga kelishi aniqlangan. Xususan, “xelikobakter pilori” mikroorganizmi ushbu kasallikni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, sut achituvchi bakteriyalar – ya’ni, qatiq, yogurt va tvorog tayyorlashda ishlatiladigan foydali mikroorganizmlar sog‘lom oshqozonda mavjud bo‘lib, ular xelikobakter piloriga qarshi kurashadi.

(Davomi 5-sahifada).

FAKT

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o‘rni va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya ishtirokchilariga tabrik yo‘lladi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tash nufuzi va jozibadorligini oshirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva AQSH savdo vakili, elchi Jeymison Grir bilan uchrashuv o‘tkazdi.
- Osiyo chempionati doirasida yunon-rum kurashi bahslarida O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari 2 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medaliga sazovor bo‘ldi.

MOZIYDAN SADO

ADIBNING AYVONI

Otam Habibullo Qodiriy shunday qimmatli xotirani aytib bergandi:

“1956–1962-yillarda Toshkent davlat meditsina institutida tahsil olganman. Rektor Abdulmalik G‘ulomov bilan munosabatimiz yaxshi edi. U kishi mening ToshMIga qayta tiklanishimga katta yordam bergan.

Bir kuni G‘ulomovning xonasida so‘zlashib o‘tirsak, qiyofasi kavkazliklarga xos, kumushsoch, o‘rtabo‘y bir oqsoqol kirib keldi. Domla u kishi bilan ko‘rishib, darhol meni tanishtirdi:

– Mana, o‘rtoq Sodiq Aliyevich, bu yigit o‘sha siz hikoya qilib bergan Abdulla Qodiriyning o‘g‘li bo‘ladi...

(Davomi 4-sahifada).

NUQTAYI NAZAR

ENDI SALOHIYATIMIZNI KO‘RSATISHIMIZ KERAK!


Xalqaro Amir Temur jamoat fondi raisi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad ALI bilan suhbat



– Prezidentimizning “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorga imzo chekkani tarixiy hodisa bo‘ldi. Bu ulug‘ ajdodimiz siymosini badiiy asarlarida gavdalantirib kelayotgan adib, u zot nomi bilan ataluvchi tashkilot raisi sifatida qanday hissiyotlar uyg‘otdi?

(Davomi 2-sahifada).

ZIYORAT



ILM VA IYMON MASKANI

Samarqand viloyatida yangidan barpo etilgan Imom Buxoriy majmuasiga O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tashabbusi va Turizm qo‘mitasi hamkorligida media-tur tashkil etildi. Ushbu tadbir doirasida jurnalist va blogerlar majmuada amalga oshirilgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari, yaratilgan zamonaviy infratuzilma hamda ziyoratchilar uchun muhayyo etilgan qulay shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.

Safar davomida ishtirokchilar Hadis ilmi maktabi, xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, to‘qqiz bo‘limdan iborat zamonaviy muzey, ulkan masjid, ma’muriyat binosi hamda milliy me’moriy an’analar asosida barpo etilgan 154 ustundan iborat ayvonni ko‘zdan kechirdilar. Shuningdek, ular muhaddislar sultoni, buyuk vatandoshimiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hazratlarining maqbarasini ziyorat qilib, ma’naviy quvvat olishdi.

Ma’lumki, “Sahihul Buxoriy” nomi bilan mashhur bo‘lgan “al-Jome’ as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”) asari islom olamida beqiyos ahamiyatga ega, qimmatli manba hisoblanadi. U asrlar davomida Qur’oni Karimdan keyingi eng ishonchli hujjat sifatida e’tirof etiladi. Shu bois, ushbu majmua ulug‘ muhaddis qoldirgan boy ilmiy-ma’naviy merosga bo‘lgan chuqur ehtirom, e’zoz va sadoqatning yorqin ifodasi sifatida qadrlanadi.

(Davomi 5-sahifada).

ENDI SALOHIYATIMIZNI KO‘RSATISHIMIZ KERAK!

Boshlanishi 1-sahifada.

– Bu qaror, nafaqat Amir Temur, balki uch ming yillik davlatchilik tariximizni o‘rganish, idrok etish yo‘lidagi muhtasham hujjat bo‘ldi. Kuni kecha muhtaram Yurtboshimiz bizning muzeyga tashrif buyurgan chog‘ida yana bir bor boy tariximiz, buyuk tarixiy shaxslarimizning millat tarbiyasidagi muhim o‘rni to‘g‘risida to‘xtalib, ibratli fikrlar bildirdilarki, biz bu qimmatli ko‘rsatmalarni kelgusi ishlarimizga dasturulamal qilib olamiz. Imkondan foydalanib, suhbatimiz avvalida bizga buyuk daholarimizni to‘laqonli qaytarib, millat g‘ururini yuksaltirgani, jumladan, muzeyimizni zamonaviy darajaga ko‘tarishga bosh-qosh bo‘lgani, tarixchi va yozuvchilarga ijod imkonini berib, rag‘batlantirayotgani uchun Prezidentimizga keng jamoatchilik nomidan minnatdorlik bildirib o‘tmoqchiman.

Endi qarorga qaytadigan bo‘lsak, unda Buyuk temuriylar davrini tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy chora-tadbirlar belgilab berildiki, bu tariximizning boshqa davrlarini qanday o‘rganish kerakligi bo‘yicha yo‘llanma vazifasini o‘taydi. Chunki “oltin davr” hisoblanadigan Sohibqiron Amir Temur davri va faoliyati shonli tariximizning o‘zagini tashkil etadi-da.

Qaror muqaddimasida shunday satrlarni o‘qiymiz: “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, Ikkinchi Uyg‘onish davri – Temuriylar Renessansi bunyodkori Amir Temur milliy davlatchiligimiz va jahon tarixida beqiyos o‘rin tutadi. Mustabid tuzum tomonidan nohaq qoralab kelingan bu ulug‘ zotning muborak nomi va xotirasi mustaqillik yillarida tarixiy adolat asosida qayta tiklandi. Sohibqiron Amir Temur siymosi milliy davlatchiligimiz timsoliga aylanib, o‘zlikni anglash, an’ana va qadriyatlarimizni tiklash borasida xalqimizga ulkan ma’naviy kuch bag‘ishlab kelmoqda”.

Shundan kelib chiqib, mamlakatimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichi – Uchinchi Renessansga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Sohibqiron Amir Temurning shaxsiyati, buyuk ajdodimizning bashariyat tarixi va Turon tamaddunidagi o‘rni hamda temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o‘rganish, yurtimiz va chet ellarda keng ommalashtirish mamlakatimizda yangi Uyg‘onishga zamin hozirlaydi. Bu ezgu ishda, avvalo, siz-u biz – ziyolilar, olimlar, ijodkorlar kamarbasta bo‘lishimiz kerak.

– Mazkur hujjatda “Buyuk temuriylar” atamasining xalqaro ilmiy istiloh sifatida joriy qilinishi bo‘yicha chora-tadbirlar ham o‘z aksini topgan. “Buyuk” sifatiga jahon tarixida tez-tez duch kelamiz: Buyuk Britaniya, Buyuk boburiylar saltanati, Buyuk Pyotr va hokazo.


Amir Temur va temuriylarning jahon tamadduni rivojiga qo‘shgan hissasini hisobga olsak, ularga nisbatan bu sifatni ishlatish mantiqan to‘g‘ri bo‘libgina qolmay, tarixiy adolatning tantanasi ham bo‘ladi. Shunday emasmi?

– Juda ham to‘g‘ri! Fikringizga qo‘shilaman. Haqiqatda bobolarimiz buyuk zotlar edi. Nega biz shu paytgacha ularga yetarlicha baho bermay keldik? Nega jahon ayvonida Amir Temur va temuriylarga nisbatan yangrayotgan turli gap-so‘zlarga dadil javob qaytarmadik. To‘g‘ri, bir vaqtlar buning iloji yo‘q edi. Ammo Istiqlol davrida Qahramon shoirimiz Abdulla Oripov kabi “Aytgum, bu kun u manim, manim!” deb hayqirsak arzimasmidi?.. O‘tgan ishga salovat deydilar. Mana, zamoni keldi, endi salohiyatimizni ko‘rsatishimiz kerak!

Shu sababdan mazkur Qarorda Amir Temur va temuriylarning jahon tamadduni rivojiga qo‘shgan hissasini dunyoga keng ko‘rsatish niyatida xorijiy davlatlarda xalqaro ilmiy muomalaga “Buyuk temuriylar” atamasining istiloh sifatida kiritilishini ta’minlash vazifasi qo‘yildi. “Buyuk temuriylar tarixi va madaniy merosi” mavzusida taqdimotlar, uchrashuvlar, muloqotlar, mediatadbir va anjumanlar o‘tkazilishi belgilandi.

O‘z-o‘zidan, Mirzo Ulug‘bek, Ibrohim Sulton, Boysung‘ur Mirzo, Iskandar Mirzo, Sulton Husayn Mirzo, Bobur Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunnisobegimlarning mo‘tabar nomlari tilimizga keladi. Barchasi – temuriylar. Ularning har biri haqida alohida suhbat joiz.

Men ikki siymo haqida to‘xtalib o‘taman. Ibrohim Sulton ibn Shohrux. Avval Balx, keyin Sheroz viloyati hokimi bo‘ldi. O‘tkir siyosatchi edi. Xattotlik bobida ustozlik qilardi. U Qur’oni Karim nusxalarini ko‘chirishda mohir edi. Bu nusxalardan ikkitasi Eron muzeylari, xususan, Sheroz shahrida joylashgan “Pars” va Mashhaddagi “Astan Quds Razaviy”da saqlanadi. Tadqiqotchi Dilbarxon Ahmedovaning guvohlik berishicha, milodiy 1427-yilda Ibrohim Sulton tomonidan ko‘chirilgan “Qur’oni-jomiy” nusxasi Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyida saqlanadi.



Hayratga tushadigan joyi – mazkur nusxa ko‘chirilgach, oradan ikki asrcha vaqt kechib, boburiy podshoh Avrangzebning qo‘liga o‘tgan va podshoh uni e’zozlab (Ibrohim Sultonni “o‘sha zamonning eng buyuk sultoni va zamon podshohlarining eng ulug‘ining nabirasi”, deb ta’riflaydi) nusxaning oxirgi sahifasiga kitobni milodiy 1638-yilda o‘qib tugatganini, ulug‘ ajdodlaridan meros sifatida uni asrab-avaylashni o‘z burchi deb bilishini ifoda etib o‘z qo‘li bilan dastxat bitgan.

Ibrohim Sultonning ulug‘ savob ishlaridan yana biri – milodiy 1420–1425-yillarda o‘zi bosh bo‘lib muarrix Sharafuddin Ali Yazdiyni jalb etib, mashhur “Zafarnoma” asarining yozilishiga sababchi bo‘lganidir. Bugungi kunda bu asar o‘zimizda ham, xorijda ham Sohibqiron Amir Temur haqida yozilgan tarixlarning mukammali hisoblanadi.

Ikkinchisi, Boysung‘ur Mirzo ibn Shohrux. Tarixchilar uni o‘ta zukko, donishmand, san’at fidoyisi, bilimdon xattot, xushfe’l inson sifatida ta’riflaydi. U, asosan, otasining huzurida, saroyda xizmat ko‘rsatgan. Mamlakatdagi jami shaharlardan eski qo‘lyozmalarni yig‘dirgan. Bog‘i Safid bog‘ida o‘zi bosh bo‘lib mohir xattotlarni jamlagan, har tomonlama ularni moddiy ta’minlagan va qo‘lyozmalarni ta’mirlatgan yoki yangidan ko‘chirtirgan, tayyor nusxalarni madrasa, masjid va mahallalarga tarqatgan.

U Hirot naqshinnigor (miniatyura) maktabining asoschisi hisoblanadi. O‘zi onasi Gavharshodbegimning Mashhadda bunyod ettirgan madrasa devorlariga naqshlar solgan. Uning tarixiy ishlaridan yana biri Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostoni qo‘lyozmalarini to‘plab, bir-biriga qiyoslab, shaxsan o‘zi kotiblar yo‘l qo‘ygan ayrim sahvlarni tuzatgan va “Shohnoma”ning mukammal nusxasini yaratgan. Uning ustiga, dostonga so‘zboshi, muqaddima yozgan. Muazzam “Shohnoma”ga so‘zboshi yozish... bu juda katta bilimni, jur’atni talab qiladi. Ana shu nodir nusxa hozir Tehron muzeylaridan birida saqlanadi.

Daryo dengiz daragini beradi. Agar Temurbekning ommaga ko‘pam ma’lum bo‘lmagan nevaralari shunchalik ulug‘ ishlarga qodir bo‘lsa, uning o‘zi qanchalik katta fenomen bo‘lgan ekan?! Buni daf’atan tasavvur qilish aqlga og‘irlik qiladi. Shuning uchun ham qarorda “Temur tuzuklari” asarining ilmiy izohli matnini fors, arab, xitoy, ingliz, fransuz, ispan va rus tillarida chop etish, “Temuriylar davrining 100 nodir qo‘lyozmasi”, “Temuriylar davrining 100 nodir durdonasi” kitob-albomlarini yaratish, temuriylar davriga oid, xorijiy davlatlarda saqlanayotgan asl yozma manbalar nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish, Temuriylar davri manbalari elektron platformasini yaratish belgilab qo‘yildi.

– “Tirik tarix” loyihasi asosida suratga olingan, Amir Temur saltanatining Yevropa davlatlari bilan diplomatik va elchilik aloqalari yoritib berilgan tarixiy-badiiy va hujjatli filmlarni Ispaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi xorijiy mamlakatlarda namoyish etish masalasi ham qarorda o‘z aksini topdi. Amir Temur va o‘zbek kinosi masalasida fikrlaringiz o‘quvchilarimizni qiziqtiradi.

– Men O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton ssenariysi asosida suratga olingan “Ulug‘ Amir va donna Mariya” badiiy filmi taqdimotida bo‘ldim va juda ta’sirlandim. Unda Amir Temurning jahoniy shaxs ekani ko‘rsatib berilgan. Film menga yoqdi. Ijodkorlarning mehnati maqtovlarga arziydi. Film bizda Amir Temur mavzusini qanday yoritish kerak, deb chalkash xayollarga mubtalo bo‘lib yurgan ijodkorlarga yo‘l ko‘rsatib berdi yoki boshqacha aytganda, yo‘l ochib berdi. Shuning o‘zi ham katta xizmat.

Umuman, qilingan yaxshilik, ezgulik hech qachon unutilib ketmasligi haqidagi tarixiy hikmat film zamiriga jo bo‘lgan. Amir Temurday dunyo tashvishi bilan band bo‘lgan ulug‘ zotning tutqunlikka tushgan ayollar taqdiri bilan qiziqishga, e’tibor berishga vaqt topganining o‘zi hayratlanarli! Shu emasmi insonparvarlik?! Real hayotda shundoq. Endi ularni yuvib-tarab Ispaniya qiroliga elchilar kuzatuvida yuborishi tahsinga sazovor. Ular Ispaniyada kanizaklar emas, malikalar qatorida ko‘rildi, chunki ular Sohibqiron Amir Temur tomonidan yuborilgan! Kanizaklarning tarixi Ispaniyada mashhur bo‘lib ketdi, shoirlar she’rlar bitdi. Ispaniyada donna Mariya deb nomlangan kanizak, aslida Vengriya qiroli Sigizmund I ning nabirasi bo‘lgan.

Filmning kulminatsiyasida Sohibqiron Amir Temurning Yevropa mamlakatlari monarxlariga yo‘llagan maktublari alohida-alohida ko‘rsatilib, o‘qib beriladi. Ularning munosabatini sahnada gavdalantiradi. Mana shu epizodlar uchun ham bu filmni dunyo bo‘ylab taqdimotini o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bu asar Amir Temurning jahon tamadduniga, xususan G‘arb sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini yana bir bor ta’sirchan shaklda ko‘rsatib beradi.

– Ustoz, keyingi yillarda dunyo kino ustalari bizning buyuk bobolarga e’tibor qarata boshladi...

– Ha, buning sababi aniq. Avvalo, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bizning o‘z buyuk bobolarimizga qarashimizni o‘zgartirdi. Natijada, xorij ham o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldi.

Shu bois Sohibqiron haqida yaqin-yiroq davlat ijodkorlari filmlar ishlamoqda. Ularning ham o‘ziga yarasha yutuq va kamchiliklari bor, albatta. Lekin unutmaylik: hech bir xalq boshqa bir xalqning milliy qahramoni obrazini asliday ochib berolmaydi. Bu yerda faqat aktyorlik mahorati haqida ketmayapti gap. Gap: milliy g‘urur, millat sha’ni va millat taqdiriga daxldorlik masalalarida. Shu sabab mavjud tajribalar va jahon amaliyotidan foydalanib, Temurbek haqida yangi kinomahsulotlar yaratish ustida bosh qotirishimiz zarur. Buning uchun esa avvalo, intellektual aktyorlar jamoasini, dangal aytganda, Amir Temurni o‘ynaydigan aktyorni shakllantirish, tarbiyalash kerak.

– Bugun Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan ilmiy, badiiy, ommabop asarlar yaratilmoqda. Afsuski, aksari ikki daryo oralig‘ida qolib ketyapti. Xalqaro maydonda targ‘ibot tarjimasiz bo‘lmaydi.

– Tarjima masalasi jiddiy va dolzarb. Adabiyot boshqarilmaydi, degan gap to‘g‘ri. Lekin tarjima boshqarilishi zarur. Birinchidan, tarjimonlarga haq to‘lash masalasi jiddiy ko‘rib chiqilishi kerak. Ikkinchidan, “Jahon adabiyoti” jurnalimiz chiqib turibdi, tarjimonlar maydonini kengaytirmoq lozim. Aniq taklif aytaman, faqat tarjimaga ixtisoslashgan nashriyot ochish zarur. Yana ta’kidlayman, tarjima – ijodiy ish, lekin boshqariladigan ish.

– Sohibqiron haqida hech kim sizchalik ko‘p va xo‘b yozmagan. 80-yillarda “Sarbadorlar” bilan boshlangan ijodiy zanjir bugun ham davom etib kelyapti. O‘tgan yili “Temurbek” asaringizdan parcha “Jadid” sahifalarida chop etilgan edi. Mana, bu yil, qutlug‘ sana arafasida kitob holida qo‘limizga tegdi. Yangi asaringiz haqida o‘quvchilarga aytib bersangiz.

– Muhtaram Prezidentimiz ziyolilar bilan bo‘lgan muloqotlaridan birida savol qo‘ygan edi: “Nima uchun bobolarimiz yoshligi haqida asarlar kam? Xususan, Amir Temurning yoshligi haqida asar qani?”

Shundan keyin o‘ylanib qoldim. Bu gap xuddi menga aytilganday edi. Shu payt Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Otabek Hasanov ham uchrashuvdan hayajonlanib chiqib qoldi. U, shu asarni siz yozishingiz kerak, ustoz, yordam – bizdan, dedi. Yaxshi, oqko‘ngil insonlarning so‘zi, ayniqsa, yozuvchiga juda zarur. Ko‘nglimga uchqun tushdi, ikki yil davomida Amir Temur bobomizning ajdodlari tarixini ilgari ham o‘qigan bo‘lsam-da, endi boshqacha tavajjuhda yondashib o‘rganib chiqdim. Rivoyatlar bilan tanishdim.

Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘iga bordim. Bu tabarruk maskanni u boshidan bu boshigacha kezib chiqdim, kechqurunlari yaqin kelib qolganday tuyuladigan osmonlarni tomosha qildim, oqsoqollar suhbatlarini oldim, tasavvurlarim kengaya boshladi.

Tarixiy qissa bitgandan so‘ng yozuvchi va olimlarga o‘qishga berdim, fikrlarini tingladim. Bari foydali bo‘ldi.

Kuni kecha “IT-park” majmuasida kitob taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Kitobni Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan Raqamli texnologiyalar vazirligi hamkorlikda nashr qildi. Fursatdan foydalanib, ularga o‘z minnatdorligimni bildiraman.

– Sohibqiron tavalludi yil davomida nishonlanishi belgilab berilgan. Jamoat fondining va ustoz adib Muhammad Alining kelgusi rejalari qanday?

– Shu kunlarda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida “Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o‘rni va ahamiyati” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazilyapti.

Fondda esa Amir Temur haqida yozilgan asarlarni nashr etish, ularga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlar o‘tkazishni rejalashtirganmiz. Chunonchi, shu yil aprel oyi ikkinchi o‘n kunligida Turkiston shahrida Sohibqironga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya o‘tkaziladi.

Hozirgacha Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarini, Amir Temur saltanati haqida ilk kitob – G‘iyosiddin Alining “Hindiston yurishi kundaligi” kitobini chop etdik.

Kuni kecha quvonchli hodisa yuz berdi: “Temur tuzuklari”ning uch tilda – o‘zbekcha, ruscha, inglizcha nashri bosmadan chiqdi. Kitob muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so‘zboshisi bilan ochiladi.

Kamina xodimingiz ijodiga kelsak, to tanda jon, yurakda mador bor ekan, millat va Vatanga daxldor mavzularda izlanishdan to‘xtash yo‘q. Katta ishonch, mas’uliyat zimmamizda ekanligi doimo bizni qo‘lga qalam olishga chorlayveradi.

– Ma’lumki, jadidlar ham Amir Temur shaxsini yuqori baholagan, undan madad olgan. Xususan, Fitrat boshchiligida xorijga o‘qishga ketayotgan talabalarning Amir Temur maqbarasida qasamyod qilishi voqeasi yurakni titratadi. Demak, Temurbek faqat o‘rta asrlar shaxsi emas, har bir davrda millatning o‘lmas siymosi, mangu barhayot daho ekan-da.

– Darhaqiqat, buyuk Amir Temur siymosi, ruhi hamma zamonda ham xalqimizning qalbida bo‘lgan, jumladan, jadidlarda ham. Abdurauf Fitratning Amir Temur haqidagi o‘tli xitoblari, “Yurt qayg‘usi” maqolasi, “Temur sag‘anasi” dramasi buni ko‘rsatib turibdi.

Siz aytgan talabalar Olmoniyaga yo‘l olgan edi. U yerga Sohibqiron qadami yetmagan, ammo o‘rta asrlar Yevropasi aynan bobomizning himmati va olijanobligi tufayli erkin nafas ola boshladi hamda ilm-fan yutuqlariga erisha boshladi. Turkistonlik talabalar esa ilmga chanqoqligi, vatanparvarligi bilan “Temur tig‘i yetmagan joyni qalam bilan oldi”. Aslida, ana shu qasamyod har bir chet elga o‘qishga ketayotgan, o‘zimizda ilm yo‘lini tutgan yoshlarning ham qasamyodi bo‘lishi kerak.

Amir Temurni boshqa jahongirlardan ajratib turadigan jihatlaridan biri: ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi, bog‘lar va imoratlar bunyodkori ekanidir. Bugun ne-ne sarkarda-yu davlat arboblarining nomini faqat kitoblarda ko‘ramiz. Ammo Temurbek nomi u bunyod ettirgan binolar ko‘rinishida Yer yuzi bo‘ylab qad rostlab turibdi, uning soyasida yaratilgan va ko‘chirilgan kitoblarni ahli jahon xatm qilmoqda. Shu ma’noda, Amir Temur tavalludi sanasi faqat milliy emas, umumbashariy muhim sanadir.


– Ustoz, O‘zbekiston Mustaqilligining 35 yilligi arafasida Amir Temur tavalludining 690 yilligini nishonlash, “Mirzo Ulug‘bek” nomli birinchi milliy ilmiy sun’iy yo‘ldoshning uchirilishini e’lon qilish, Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligini o‘tkazish, Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi, Samarqandda Imom Buxoriy majmuasining qayta ochilishi, Pokistonda Bobur bog‘ining bunyod etilishi xalqimizga bitmas-tuganmas faxr va g‘urur bag‘ishlamoqda.

Ma’lumki, davlat suvereniteti ramzlaridan biri bu bayroqdir. Agar xayolga erk beradigan bo‘lsak, Tarix, Ilm, Adabiyot, Iymon otlig‘ dunyolarda har bir xalqning o‘z ramzlari bor. Amir Temur va Temuriylar xonadoni ham millatimizning iftixor bayroqlaridan. Niyatimiz, ushbu bayroqlar sarbaland bo‘lib, mangu hilpirab tursin!

Ustoz, ulug‘ bobomiz tantanalari jarayonida suhbatga rozi bo‘lganingiz, qimmatli mulohazalaringiz bilan o‘rtoqlashganingiz uchun rahmat! Salomat bo‘ling!

I.MIRZAALIYEV
suhbatlashdi.

TAQDIMOT



“BIZKIM...”

Sir emaski, bugun Yangi O‘zbekistonda ma’naviy yuksalish, milliy tafakkur va tarixiy merosni asrab-avaylash borasidagi ishlar tamomila yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Murakkab va tez o‘zgarayotgan zamonaviy dunyoda esa milliy tarixga xolis yondashish, yosh avlod qalbida vatanparvarlik va tarixiy xotirani mustahkamlash eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi tashabbusi bilan O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali muallifligida “Temurbek” nomli yangi tarixiy qissa yaratildi.

Kuni kecha O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi Kongress zalida ushbu asarning tantanali taqdimot marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda yozuvchi-shoirlar, temuriylar davri tarixi va madaniy merosini o‘rganayotgan tadqiqotchilar, tarix, adabiyot va madaniyat sohasi mutaxassislari ishtirok etdi.

Tantanali taqdimotni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbarining birinchi o‘rinbosari Botu Alimov ochib berarkan, yig‘ilganlarni Sohibqiron Amir Temurning bolalik va o‘smirlik davrlarini yoritishga bag‘ishlangan yangi asar bilan samimiy qutlab, tadbirning ma’naviy ahamiyati haqida mulohaza yuritdi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali so‘zga chiqib, “Temurbek” qissasining yaratilish tarixi va ahamiyati haqida fikrlarini bildirib o‘tdi. Muallifning ta’kidlashicha, asar bir necha yillik ilmiy va ijodiy izlanishlar natijasida tayyorlangan bo‘lib, u buyuk bobomizning yuksak axloqiy fazilatlarini yosh avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, Amir Temurning bolaligi va o‘smirligi haqida rasmiy risolalar hamda tarixiy solnomalarda cheklangan ma’lumotlar mavjud. Buyuk temuriylar davrini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi olimlarga yaxshi tanish bo‘lgan Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Fasix Xavofiy kabi muarrixlar yozgan xotiralar, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida Temurbekning bolalik davri haqidagi tasavvurlarni to‘ldirishga bir necha bor urinishlar bo‘lgan. “Temurbek” asari shu kabi hujjatlarni badiiy talqin qilish orqali o‘quvchiga yangi qarash va taassurotlarni taqdim etadi.

Tadbir davomida sahnada Amir Temurning onasi Tegina xotun siymosi gavdalantirildi, shuningdek, “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilari tomonidan tayyorlangan harbiy musiqiy namoyish va jang san’ati chiqishlari ham ishtirokchilar e’tiboriga havola etildi.

Qissaning o‘ziga xos jihati shundaki, u zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda sun’iy intellekt yordamida yaratilgan illyustratsiyalar va videomateriallar bilan boyitilgan. Shuningdek, asar yakunida buyuk sarkardaning avlodlarga qarata aytgan so‘zlari audio formatda taqdim etildi.

“Temurbek” asari yosh avlodni milliy g‘urur, vatanparvarlik va ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan muhim manba sifatida ahamiyatlidir. Mazkur kitob keng jamoatchilik, tarixshunoslar va adabiyot ishqibozlari uchun mo‘ljallangan.

Otabek RAHIM



“ADOLAT HAR BIR ISHDA HAMROHIMIZ VA DASTURIMIZ BO‘LSIN!”

Boshlanishi 1-sahifada.

Raqamlashtirish orqali muzey imkoniyatlari kengaytirilib, ekspozitsiyalari yangilandi, jumladan, xorijdagi to‘plamlardan xarid qilingan eksponatlar bilan boyitildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu rekonstruksiya qilingan Temuriylar tarixi davlat muzeyiga tashrif buyurib, muzeyning yangilangan ekspozitsiyasi va tashrif buyuruvchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishar ekan, ajdodlar merosini o‘rganish, asrab-avaylash va targ‘ib etish naqadar muhim ekaniga urg‘u berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashrif asnosida Temuriylar tarixi davlat muzeyining mehmonlar kitobiga dastxat qoldirdi.

Dunyo havas qilgulik tariximiz, merosimiz bor. Sohibqiron tarixini jamlagan muzey zamonga munosib yangi qiyofaga kelgani yaxshi bo‘ldi. Endi buni aholimizga, yoshlarga, xorijlik mehmonlarga yetkazish eng katta vazifamiz. Yangi O‘zbekistonni yuksaltirish uchun kerakli bilimlarni qayerdan olish mumkin desangiz, bularning barchasi – ajdodlarimiz qoldirgan merosda, ilmda. Shu bois, yoshlarimizni, nuroniylarni, umuman, aholimizni mahallabay tarzda muzeylarga olib kelib, buyuk tariximiz haqidagi bilimlarini oshirishimiz lozim.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

* * *

Bu yil O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilinganiga 35 yil to‘ladi. Shu munosabat bilan Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ta’kidlash lozimki, mazkur hujjat bilan Istiqlolimizning shonli sanasini yuksak saviyada o‘tkazish, ushbu ulug‘ bayramni munosib nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish hamda mazkur ayyomni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash, shuningdek, bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” g‘oyasini o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy hamda targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini o‘tkazish yuzasidan zarur vazifalar belgilandi. Qarorda belgilangan vazifalar xalqimizning umumiy maqsadi va orzularini mujassam etgan.

Umumxalq to‘yini keng nishonlash rejasi faqatgina tarixiy hujjat emas, balki kelajagimiz uchun muhim yo‘l xaritasi chizgilaridir. Istiqlol solnomasiga nazar tashlagan kishi keyingi to‘qqiz yilda mamlakatimizda yangi-yangi an’ana va qadriyatlar, yangi ijtimoiy munosabatlar, yangicha dunyoqarash va fikrlash, shu bilan birga, mamlakat, millat taqdiri uchun mas’ullik va bundan faxr-iftixor hissi paydo bo‘lganiga guvoh bo‘ladi.

O‘ttiz besh yil avval erta-kech daladan kelmaydigan, yelkasidan ketmon tushmagan kafti qadoq dehqonning farzandi bugun mamlakatning oltin avlodi vakili, O‘zbekistonning iftixori, umidi, buyuk kelajagimizning yaratuvchisi deb atalsa, ana shuning o‘zi olamshumul evrilish emasmi?!

Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan bunyodkorlik, deyarli qayta qurilgan shaharlarimizning, obodonlashib borayotgan qishloqlarimizning yangi zamonaviy ko‘rinishi, yo‘lsozlik, ko‘priksozlik, shaharsozlik ilmining, tadbirkorlik va ishbilarmonlikning rivojlanishi, ilm-fan, madaniyat va san’at, sport va boshqa sohalarda erishilayotgan yutuqlar, millatlararo ahil-inoqlik, bag‘rikenglik, hech shubhasiz, Istiqlol imkonini to‘g‘ri tasarruf etgan odil siyosat sharofati.

O‘zbekiston yetakchisining qat’iy siyosiy irodasi bilan majburiy mehnat, shu jumladan, bolalar mehnatiga barham berildi. Tan olish kerak, mustaqillikdan keyin ham oddiy xalqni majburiy mehnatga jalb qilish, bolalar kuchidan foydalanish, xotin-qizlarni choy-chaqaga ham arzimaydigan haq evaziga og‘ir mehnatga tortish yuraklarni zada qilib tashlagandi. “Bechora chora istar, bir chora zamon bormu?” deb dardimiz ichimizda yuraverdik.

Nihoyat, “bir chora zamon keldi” va Davlatimiz rahbari barcha muammolar yechimi sifatli ta’limda deb tashxis qo‘ydi. Jamiyat ma’rifatli bo‘lsin, millat ilmli bo‘lsin dedi.

Millat boshiga ming balo yog‘dirgan mash’um paxta siyosati, paxta yakkahokimligi millat bolalarini mo‘rt va kasalmand qilib qo‘yganiga sovet tuzumi aybdor sanalardi. Ammo bu vaziyat mustaqillikdan keyin ham o‘zgarishsiz qoldi. Hosilning yarmidan ortig‘ini terib oladigan mashinalar metallommga topshirib yuborildi. Terimning asosiy yuki maktab, kollej o‘quvchilari, talabalar zimmasiga tushdi. Mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish uchun millat ma’rifati, ong-u tafakkurini boy berish alal-oqibat milliy inqirozga yuz tutishga olib kelishi haqida o‘ylab ko‘rilmadi. Bu farzandlarimizning o‘qishdan qolib ketishi yoki chalasavod va ramaqijon bo‘lib ulg‘ayishiga, milliy g‘urur, milliy o‘zlikdan uzoqlashishga yo‘l ochdi. Qorni to‘q, usti but, oilasi obod, farzandlari o‘qimishli bo‘lgan xalqgina o‘z oldiga ulug‘vor maqsadlar qo‘ya oladi. E’tibor bering, bugun har bir viloyatda ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Prezident maktablari faoliyat yuritmoqda. Ta’lim tizimini zamonaviy metodlar asosida, shaxs tarbiyasiga e’tibor qaratgan holda, ayniqsa, xalqaro standartlar talablariga mos faoliyat olib borilayotgani qanchalik samarali ekanini hayot tasdiqlab turibdi. Bu qadamlar Uchinchi Renessans poydevori uchun zamin bo‘layotganini xalqimiz chin dildan his etyapti.

Yillar yillarga ulanib boraveradi. Vaqt chig‘irig‘i tinimsiz aylanadi. Maqsadni aniq belgilagan, bahamjihat harakat qilgan, ogohlikni qo‘ldan boy bermagan, yutuqlaridan esankiramay, yangi, yanada baland marralarni ko‘zlagan xalq, millatgina o‘zining buyuk kelajagini ta’minlay oladi.

* * *

Sohibqironning davlat boshqaruvi, adolat, inson huquqlari va ijtimoiy barqarorlikka bo‘lgan munosabati zamonaviy davlatchilik tamoyillarimiz bilan hamohang, desak yanglishmagan bo‘lamiz. U o‘z davrida ilm-fan va madaniyat rivojiga katta e’tibor bergan, bundan tashqari, ulug‘ adiblar va olimlarni himoya qilib, ularning yangi avlodini tarbiyalagan. O‘sha davrda yaratilgan madaniy meros bizning bugungi milliy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi.

Amir Temurning tarixiy adolatga asoslangan haqiqiy siymosi xalqimiz uchun bir necha asrlar davomida orzu-armon bo‘lib kelgan. Sohibqironning asl qiyofasi, tarixiy mavqei keyingi yillarda qayta tiklanishi faqatgina o‘tmishga ehtirom ifodasi emas. Bobomiz shior qilib ko‘targan adolat tantanasi samarasi o‘laroq bu amal kelajak avlodlarga milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulardan faxrlanish imkonini berdi.

Buyuk bobomiz siymosi milliy davlatchiligimiz timsoliga aylanib, o‘zlikni anglash, an’ana va qadriyatlarimizni tushunish hamda qadrlash borasida xalqimizga ulkan ma’naviy kuch bag‘ishlab kelmoqda.

* * *

Bugun tavallud kuni nishonlanayotgan buyuk adib, o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy ijodida ham Amir Temur siymosi va davri asosan ulug‘vorlik, millatparvarlik va tarixiy g‘urur timsoli sifatida gavdalanadi. Garchi Qodiriy Amir Temur haqida maxsus tarixiy asar yozmagan bo‘lsa-da, uning yozmalarida, xususan, “O‘tkan kunlar” romanida Yusufbek hoji lafzidan ulug‘ Amir nomi ehtirom bilan tilga olinadi. Umuman, jadid publitsistikasida Sohibqironning davlatchilik siyosati va shaxsiyatiga nisbatan yuksak hurmat seziladi. Bu maqolalarda Amir Temur musulmon Sharqidan G‘arbga do‘stona qo‘l uzatgan, kuchli va odil davlat arbobi sifatida ta’riflanadi. Oydinlar tarixiy manbalarga tayanib, olamgirning Ispaniya qiroli elchisi Klavixoga ko‘rsatgan izzat-hurmatini va uni “o‘g‘lim” deb ataganini olijanoblik va diplomatik mahorat misolida e’tirof etadi.

Qodiriy yashagan davrda Sohibqironga nisbatan salbiy munosabat shakllantirilganiga qaramay, yozuvchi haqiqat ko‘ziga tik boqib, Turkistonni birlashtiruvchi yalovlardan biri o‘z jahongirlarimiz ekanini badiiy yo‘sinda ta’kidlaydi. Qodiriy ijodini tadqiq etgan olimlar yozuvchining tarixiy manbalardan yaxshi xabardor bo‘lganidan dalolat etadilar.

* * *

Istiqlol ayyomi – erk va ozodlik bayrami, imkon va ishonch tantanasi, Yangi O‘zbekistonning katta to‘yidir. Eskidan qolgan tabarruk an’anaga ko‘ra, to‘yga to‘yona bilan boriladi. Aziz yurtdosh, keling, bu buyuk izdihomga munosib sovg‘a bilan yetishaylik. Zero, to‘y egasi ham siz-u biz, hammamiz... Eng qiymati bebaho to‘yona – chin Istiqlol nasib etgan toleyi porloq xalq ham o‘zimizdir.

Iqbol MIRZO

QO‘RQUNCH BIR JASORAT TARIXI

Boshlanishi 1-sahifada.

Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Temur tuzuklari”ni tarjima qilishi ana shunday tarixiy hodisalardan biri edi.

Tarjimachilikda ham ma’naviy huquq degan tushuncha bor. Sog‘uniy hazrat ana shunday maqom egalaridan, balki bu ezgu ish uchun eng munosib shaxslardan edi. Insoniyat tarixida tub burilish yasagan, Temuriylar Renessansini boshlab bergan Sohibqiron tuzuklarini o‘qish, uqish va o‘zgalarga ham uqtirish uchun, albatta, alloma, davlat arbobi, Alixonto‘ra Sog‘uniydek mohir tarjimon bo‘lish kerak. Ayniqsa, qattol tuzum qamchisidan qon tomib turgan o‘sha kezlarda.

Alixonto‘ra Sog‘uniy 1885-yil 21-martda To‘qmoq shahrida tug‘ilgan. Sog‘uniy taxallusi Bolasog‘un shahri bilan bog‘liq. Avval “Mir Arab” madrasasida, keyin Madinadagi dorilfununda tahsil oladi.



Chor ma’muriyatining aholini mardikorlikka olish siyosatiga qarshi chiqqani uchun podsho maxfiy politsiyasi ta’qibida bo‘ladi. 1916-yil qo‘zg‘oloni shafqatsizlarcha bostirilgach, siyosiy muhojir bo‘lib Qashqarga ketadi, keyin Sharqiy Turkistonga – G‘ulja shahriga boradi. Biroq bu yerda ham hurfikrlik va millatparvarligi uchun boshida ko‘p kaltaklar sinadi. Omma orasida hurriyat g‘oyalarini targ‘ib qilgani sababli, 1937-yili Xitoy ma’murlari tomonidan hibsga olinib, umrbod qamoq jazosiga hukm etiladi. 1941-yilga kelib adliyaviy taftish natijasida ozod qilinadi. 1944-yil 12-noyabrda Sharqiy Turkiston jumhuriyati e’lon qilinib, Alixonto‘ra Muvaqqat inqilobiy hukumat raisligiga saylandi. 1946-yil iyunda sovet ayg‘oqchilari tomonidan maxfiy ravishda tazyiq bilan G‘uljadan olib chiqib ketilgach, umrining oxirigacha Toshkentda uy qamog‘ida, qat’iy nazorat ostida yashadi.

Alixonto‘ra Sog‘uniy tarixni, ayniqsa, Turkiston va islom tarixini chuqur va daqiq o‘rgangan o‘tkir zehnli olim edi. Asarlarining nomiyoq muallif ilm doirasi va musanniflik qobiliyatidan dalolat: “Tarixi Muhammadiy”, “Turkiston qayg‘usi” (1966–1973-yillarda Toshkentda yozilgan), “Devoni Sog‘uniy”, “Shifo ul-ilal” (“Xastaliklar davosi”) va boshqalar. Olimning “Tarixi Muhammadiy” asari 1959-yilda yozib tugallangan, lekin muallif vafotidan keyin, 1991-yilda chop etilgan.

Sog‘uniy hazratlari 1976-yili vafot etgan va Toshkentdagi Shayx Zayniddin bobo qabristoniga dafn etilgan.

* * *

Alixonto‘ra Sog‘uniydan tarjimachilik sohasida boy meros qoldi. Uning tarkibida Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoi’”, Darvesh Ali Changiyning “Musiqa risolasi”, Herman Vamberining “Buxoro yoki Movarounnahr tarixi” kabi asarlarini ko‘ramiz. Bu sohadagi shoh asar esa, shubhasiz, “Temur tuzuklari” edi.

XX asrning o‘rtalarida Amir Temur nomi atrofidagi bahslar siyosiy tus olgan, uning shaxsi biryoqlama talqin qilinayotgan edi. Temurbek faqat bosqinchi sifatida ko‘rsatilar, uning davlatchilik tajribasi, adolat va tartib haqidagi qarashlari soyada qolardi. Ana shunday qaltis paytda Alixonto‘ra Sog‘uniy “Tuzuklar”ni forschadan o‘giradi. Ushbu tarjima 1967-yilda “Guliston” jurnalida chop qilina boshlaydi. Ammo adolat yuzaga chiqayotganidan qo‘rqqan o‘sha davrning ayrim rahbarlari qarshilik ko‘rsatishi natijasida asar oxirigacha nashr qilinmay qolib ketadi.

2025-yilda “Alixonto‘ra Sog‘uniy” nashriyotida chop qilingan “Temur tuzuklari”da mazkur kitobni nashrga hozirlovchi Qutlug‘xon Shokirov shunday yozadi: “Shu vaqtgacha o‘zbekcha nashr etilgan “Temur tuzuklari” forschadan Alixonto‘ra Sog‘uniy va Habibulla Karomatov tarjimasida, Bo‘riboy Ahmedov tahriri ostida o‘tgan asrning 90-yillarida kitobxonlarga taqdim etildi. Ammo bu yerda diqqatdan chetda qolmasligi kerak bo‘lgan bir xusus bor. “Uzoq zamonlar mobaynida eski tuzum ideologiyasi sababli Amir Temur shaxsi haqida fikr yuritish qat’iyan man etilganligidan bu mavzu tahlikali va yopiq edi. Ana shunday paytda padarimiz katta jasorat ko‘rsatdilar va 1960-yilning 9-iyulida Toshkentda Sohibqiron tuzuklarini forschadan ona tilimizga o‘girdilar. Taniqli o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor mazkur tarjima asarni asl holiga keltirgan deb baholagandi. Bu bilan xalqimizni o‘zligini tanishga undadilar. “Temur tuzuklari”ning ushbu tarjimasi tom ma’nosi bilan ilmiy va milliy shijoat obidasidir”.

Alixonto‘ra Sog‘uniy “Tarjimondan” qismida shunday yozadi:

“Hozirgi tarixdan ming yillab ilgariyoq madaniyat olamida ko‘plab hissalari qo‘shilgan, butun inson naslida foyda yetkazarlik ilmiy asarlar qoldirgan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi ulug‘ olimlar ersa shu yurtimizda tug‘ilmishdir. Shunga o‘xshash butun dunyoga otog‘i chiqqan, o‘zlig tarixlarda doston bo‘lgan Temur kabi jahongir ham O‘rta Osiyodan chiqmishdir.

O‘zbekistonimizda o‘tgan ulug‘ olimlar, ustodlar tarixiy taraqqiyotlar orqali endigina yuzaga chiqib tanilayotgan bo‘lsalar ham, haligacha ochilmay, ko‘milib yotgan tarixiy sharaflarimiz yana ham ko‘pdir. Buning birdan bir sabablari esa butun tarix kitoblarimiz arabcha, forscha tillarda bo‘lib, o‘z tilimizda o‘zbekcha yozilgan kitoblarimizning kamligidir. Bunday bo‘lgach, Temur tarixini va boshqa tarixiy ishlarimizni bilishga qiziqqan anchagina yosh O‘zbekiston olimlari Ovrupo tillarida yozilgan tarix kitoblarini o‘qishga majbur bo‘ladilar. Bulardagi so‘zlar esa qo‘ldan qo‘lga, tildan tilga ko‘chirilib kelinganlikdan haqiqat qorong‘ilashib, kishi ko‘nglini qondirguday ilmiy qanoat bera olmaydi.

Biz ko‘rgan arabcha, forscha, turkcha kitoblarda Temur ustida har turli so‘zni yozadilar. Ularning qaysi birlari uni boshga ko‘tarib maqtasalar, ba’zilari uni yerga uradilar. Yigirma yetti poytaxtli yerni o‘ziga bo‘ysundirgan lashkarboshi mazkur kitobda o‘zining butun qilgan ishlarini qisqacha aytib o‘tganidan so‘ngra, o‘z saltanatini saqlash uchun bolalariga qo‘llanma bo‘lg‘uvdek harbiy-siyosiy yosollarini qurib ko‘rsatib, uni “Temur tuzuklari” deb atamishdir. Aslida esa bu kitob Temurning o‘z qalami bilan o‘zbekcha yozilgan bo‘lsa ham, bunga o‘z merosxo‘rlari ega bo‘la olmaganlar. Eshitishimcha, bu kitobning asl nusxasi London kitobxonasida saqlanmish.

Toshkentdagi Diniya kitobxonasida bundan bir nusxa borligini anglab, uni ko‘rishga qattiq qiziqdim. Qarasam, u oltin kitob o‘z asli o‘zbek tilidan forschaga ko‘chirilgach, o‘z ma’nosini yo‘qotmagan bo‘lsa ham, o‘zbeklik haybatidan ajramish edi. Buni o‘qigach, Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” kitobida aytgan so‘zini eskirib, unga rahmatlar o‘qidim. Navoiy bu kitobida o‘zbek olimlari o‘z ona tillarini qoldirib, forsiy adabiyotlariga berilganliklari uchun qattiq norozilik bildiradi. O‘zbek tilining har to‘g‘rida forsiy tilidan ortiqligini ko‘rsatib, o‘zbekchadan bir yuz og‘iz so‘z keltiradi. Bularga fors shoirlari o‘z tillarida tarjima topolmadilar, deydi.

Men bu so‘zning to‘g‘riligini ilgaridan bilsam ham, ayniqsa, bu kitobni tarjima qilib chiqqanimdan so‘ngra ko‘nglimda hech gumonim qolmadi. Chunki bu kitobning asl nusxasidagi bir necha so‘z o‘zbekcha so‘zlarga forsiyda uning tarjimasi topilmagach, u so‘zlarni tarjimon shul bo‘yicha qoldirishga majbur bo‘lmishdir. O‘quvchilarga anglatish uchun bulardan ba’zilarini bu o‘rinda ko‘rsatib o‘tamiz:



Bo‘ri QODIROV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i

1. Chorpilchor – urushga to‘plash, urush
2. Sovrin – hadya
3. Suyurg‘ol – maosh, yer-mulk
4. Qobu – payt
5. Joldu – in’om
6. Chopul – hujum
7. Chopqulash – qilichbozlik.

Bundan boshqa askar yosollarida qo‘llanmish tubandagi so‘zlarning ko‘prog‘i tarjimaga sig‘magach, o‘zlarini qoldirmishdir. Masalan, g‘o‘l (urush chog‘ida askar saflarining eng o‘rtalig‘i), barang‘ar (askar saflarining o‘ng qo‘li), jarang‘ar (askar saflarining so‘l qo‘li), hirovul (askar saflarining oldidagi bahodirlar to‘pi), shoqovul (urush maydonida ehtiyot to‘pi), chindovul (urush saflarining orqa qo‘riqchi to‘pi). Bulardan boshqa ham tarjima bo‘lmag‘on so‘zlari ko‘pdir.

Endi bu kitobni boshdan-oyoq ko‘rib chiqqanimda, buning asli o‘zbekcha bo‘lib, Temurning o‘z so‘zi ekanligini bildim”.

“Temur tuzuklari” – bu faqat qonunlar majmuasi emas. Unda davlat boshqaruvi falsafasi, rahbar mas’uliyati, adolat tamoyili, intizom va tartib haqida chuqur fikrlar jamlangan. Temur o‘z davlatini qurishda qanday mezonlarga tayangani, rahbar va fuqaro munosabatini qanday tasavvur qilgani aynan shu asarda ifoda topgan.

Sog‘uniy tarjimasi shu jihatdan tarixiy adolatni tiklashga xizmat qildi. U matnni shunchaki so‘zma-so‘z o‘girib qo‘ymadi. Tarjimada tarixiy ruh, davlatchilik ohangi va axloqiy qat’iyat saqlab qolindi. “Amir”, “lashkar”, “adolat”, “insof” kabi tushunchalar o‘z mazmuni bilan yashab qoldi. Bu esa asarni o‘quvchiga yaqinlashtirdi.


Tarjima qilingan davrda uning haqiqiy qadri to‘liq anglanmagan bo‘lishi mumkin. Ammo mustaqillik yillariga kelib, Amir Temur merosi qayta baholanar ekan, Sog‘uniyning xizmati yanada yorqin namoyon bo‘ldi. Chunki xalq o‘z tarixini asl manba orqali anglash imkoniga ega bo‘ldi. Bu yerda muhim bir haqiqat bor: millat o‘z tarixini boshqalar talqini orqali emas, o‘z manbalari orqali anglashi kerak. “Temur tuzuklari” tarjimasi ana shu yo‘ldagi oqilona qadam bo‘ldi.

Sog‘uniy nafaqat tarjimon, balki ma’naviy ko‘prik qurgan ziyoli edi. U o‘tmishni bugun bilan bog‘ladi. Agar bu tarjima bo‘lmaganida, balki Temur davlatchiligi haqidagi fikrlarimiz chala bo‘lishi tayin edi.

Temur uchun davlat – bu faqat hudud yoki qo‘shin emas, intizom, qonun va mas’uliyat uyg‘unligi bo‘lgan. U “Kuch – adolatda” degan g‘oyani amaliy siyosat darajasiga ko‘tardi. Uningcha, hokimiyat barqarorligi asosi qo‘rquv yoki zo‘ravonlik hisoblanmaydi, balki qonun ustuvorligi bilan ta’minlanadi. Temurning siyosiy qarashlarida shaxsiy manfaat emas, davlat va jamiyat manfaati birinchi o‘rinda turadi. U hokimiyatni boylik yoki shon-sharaf vositasi deb sanamagan, bil’aks, xalq taqdiri uchun mas’uliyat deb bilgan. Bu g‘oyalar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Davlatning mustahkamligi – adolatli tizim, bilimli rahbar va xalq ishonchiga tayanadi. Temur siyosiy merosining eng katta sabog‘i shunda.

Tarix ba’zan shamshir bilan yoziladi, ammo u qalam bilan saqlanadi. Alixonto‘ra Sog‘uniy ana shunday sohibi qalamlardan biri edi. Uning tarjimasi tarixni tiriltirdi, millat xotirasini mustahkamladi va o‘zlikni anglashga xizmat qildi.

“Uxlaganlarni agar qodir esak, uyg‘otamiz...”



Abdulla QODIRIY

Milliy adabiyotimizga roman janrini olib kirgan va bu nasrda barakali qalam tebratgan mumtoz adibimiz Abdulla Qodiriy serqirra iste’dod egasi edi. U kishining qalamidan nafaqat romanlar, balki hikoya, pyesa, tarjima, hajviya, felyeton va boshqa turdagi tanqidiy-tahliliy yozmalar qog‘ozga tushgan.

E’tiborlisi, Qodiriy hazrat ibtidoda nazm yo‘lida ham marrani yuksak olganiga guvoh bo‘lamiz. Muallifning g‘azallari, romanlari qatidagi nazmiy baytlarini yaxlit holda o‘qiganimizda yetuk shoir siymosi ham ko‘z oldimizda gavdalanadi. Boisi, jadid bobolarimiz millatni uyg‘otish, ma’rifatli qilish yo‘lida har bir imkondan, demakki, har bir janrdan unumli foydalanishga qaror berganlar.

Abdulla Qodiriy she’riyati namunalari bugun ham eskirgani yo‘q. Aksincha, hamon qalblarni jaholat va loqaydlik illatlaridan tozartirish uchun o‘qish va uqishga munosibdir.

TO‘Y

Qildi bu vaqt bizda javlon to‘y,
Oqchasi yo‘qni etdi hayron to‘y.

Bir-biridan oshurdilar to‘yni,
Topdi ravnaq, hayrat ila boyon to‘y.

Besh kun to‘yni so‘ngidin (...)
Ketibon mulklar bois fig‘on to‘y.

Boyon to‘yig‘a yerlilar qarab
Etdi sarf toki tandagi jon to‘y.

Ey g‘aniylarimiz, ey faqirlarimiz,
Amr etubdurmi bizg‘a Qur’on to‘y?

Mundayin ishlar shar’imizda yo‘q,
Kori maj’us, kori shayton to‘y.

Ishlamas shunday aqllik kishi,
Yo‘lamas aslo ahli vijdon to‘y.

O‘tsa to‘y birla yoz-u qishimiz,
Aylagay bizni yerg‘a yakson to‘y.

Kelingiz, do‘stlar, din qarindoshlar,
Tashlasun bo‘lsa gar musulmon to‘y!

“Sadoyi Turkiston”
1915-yil, 64-son, 20-mart, 2-bet

AHVOLIMIZ

Ko‘r bizning ahvolimiz, g‘aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelgan chog‘ida vijdonni pulg‘a sotamiz.

O‘g‘limizg‘a na adab, na fan, na yaxshi so‘ylamak,
Na Xudoni buyrug‘i bo‘lg‘an ulum o‘rgotamiz.

Korimiz shundan iborat bo‘ldi ushbu vaqtda,
O‘ntadin bedona boqib, yoz-u qish sayrotamiz.

Hamda har kun takyalarda nasha-ko‘knori chekib,
Bachchag‘a kokil solib, oh-voh ila o‘ynotamiz.

Qarimiz, boyonimiz, balki bu vaqt oqvondamiz,
Nogahon ko‘rsak agar bir besoqolni qotamiz.

O‘rtadan chiqsa agar millatni yaxshi suyguchi,
Biz ani dahriy sanab, to‘fangcha birla otamiz.

Kelingiz, yoshlar, ziyolilar, bu kun g‘ayrat qiling,
Uxlaganlarni agar qodir esak, uyg‘otamiz.

1915-yil

MILLATIMGA BIR QAROR

Kel, ey millat, bir kun bir maslahat bilan
qaror o‘lsun,
Bu kundin o‘tgan ishlarga pushaymon birla or o‘lsun.

Qilaylik bul kuni g‘ayrat hama birdan qilib himmat,
Jaholat cho‘l-sahrosida minba’d sabzavor o‘lsun.

Bu nodonlik biza qilmish edi to‘rt faslni qishdek,
Jahonni zimistoni do‘nub, fasli bahor o‘lsun.

Ayashmay kumush-oltunni hamma boyonlar aslo,
Solib dorilfununlar ham makotiblar hazor o‘lsun.

O‘qushsun millat avlodi bizni doim duo aylab,
Qilib tahsil ulumlarni fununa yaxshi yor o‘lsun.

Ochayluk jami’atlar, ko‘b yig‘aylik ham inoyatlar,
Ki toki yatim va bechora bekasg‘a mador o‘lsun.

Necha chog‘lar bo‘lubdurkim, qochibmiz biz taraqqiydin,
Bu kun bir iltifot birlan bu yo‘lg‘a bir guzor o‘lsun.

Jaholat sassig‘i bizni hamisha behuzur etdi,
Bu kun ilmning bo‘yi birlan dimog‘lar
mushkibor o‘lsun.

Bizning johilligimizni ko‘rib ul shod bo‘lganlar,
Ko‘rib mashg‘uliyatimizni ilmg‘a sharmisor o‘lsun.

Kimikim jur’at aylab, bul kalomlarg‘a amal qilsa,
Jahonda ismi ani pahlavon nomdor o‘lsun.

Bu kun men so‘zladim oz nutq siza to Qodir o‘lguncha,
Ilohi aylasun ta’sir shu so‘z sizga bakor o‘lsun.

FIKR AYLAG‘IL

Oqilo, fikr aylag‘il, ki na ishlayur ahli vatan,
Qaysi fosiq, qaysi johil, qaysisi bo‘ldi chapan?

Qildilar bir-birig‘a dushmanlikni har vaqt beibo,
Bir-birini aybin ochmoqg‘a kirishdilar bajan.

Yer sotarlar elda necha to‘y bajo etmak uchun,
Chunki bid’atin yo‘lida ham fidodur jon-u tan.

Pulni ko‘b isrof etarmiz, bizg‘a to‘g‘ri kelmag‘ay,
To‘libon toshti bu vaqt ul aqchalardin resto‘ran.

Zanlari sohibjamol-u ham satang deb o‘ylama,
Yeb-ichib jir bitmagan andoq sigiri belabon.

Qizlarin bo‘ynida ko‘rub zebigardon ham tumor,
O‘ylamangiz olima deb, jumlasi naf’siz, ziyon.

Tushsa pul qo‘lig‘a gar, soatcha to‘xtab turmagay,
Chunki nodonni qo‘lida mushk tufroqdur suman.

Qodiriy nazdingiza oz hasratidin so‘yladi,
Ayb etub qilmang haqorat, muhtaram ahli vatan.

“Oyina” jurnali,
1915-yil, 12-son

ADIBNING AYVONI

Boshlanishi 1-sahifada.

Toshkent davlat meditsina instituti xirurgiya kafedrasining rahbari, professor Sodiq Aliyevich Ma’sumov (ozarbayjonlik) hikoyasi:

“1937-38-yillar miyonasida siyosiy mahbus sifatida men ham o‘n bir oy Toshkent NKVDsi podvallarida o‘tirganman... Kameralar mahbuslarga to‘lib-toshib ketgan edi. Men o‘tirgan bir kamerada yetmish kishi yotardi. Kameramiz shuncha kishiga juda torlik qilar, yotganda xuddi tuzlangan baliq kabi hamma bir yonboshga yotar, agar ikkinchi yonboshga o‘girilmoqchi bo‘linsa, hamma buyruq bilan o‘girilar edi. Barcha mahbuslar kamera oqsoqoliga bo‘ysunardi.

1938-yil yanvar oyining boshlarida bo‘lsa kerak, tun yarmida eshigimiz qulfi ochilib, kameramizga bir kishini kiritib yubordilar. Hamma: “Yana kim keldi?” deb bosh ko‘tarib qaradi. Kelgan kishi qirq-ellik yoshlar orasida, soch qo‘ygan, ustida qizil paxtalik to‘n, oyog‘ida kalish-mahsi, qo‘lida kichkina to‘shagi bor edi. Men u kishini tanimadim. Ammo yonimda yotgan Muborak Shoxov darhol uni tanidi: “Bu kelgan kishi o‘zbek xalqining sevimli yozuvchisi Abdulla Qodiriy bo‘ladi. Bu odamga yotish uchun amallab joy ajratib berish kerak”, dedi. Muborak bilan ikkimiz ikki yoqqa siqilishib, o‘rtadan amallab bir joy ochib berdik, ko‘rishdik va ko‘p so‘zlashmay, boshqalarning uyqusiga xalal bermaslik uchun ko‘z yumdik.

Shunday qilib, o‘zbekning sevimli yozuvchisi, ya’ni “jinoyatchi”si (Sodiq Aliyevich bu so‘nggi so‘zini kinoya qilib aytar va: “Taniqli yozuvchilardan taniqli jinoyatchilar chiqishini tarixda birinchi eshitishim”, deb kular edi) bilan tanishdik. Qodiriy vazmin tabiatli, kamtar shaxs ekan. Doim birga suhbatlashardik, u kishi bizni zeriktirmasdilar...

...Men otangizning asarlarini o‘qimaganman. Aytishlaricha, “O‘tkan kunlar” yigirmanchi yillardayoq ozarbayjon tiliga tarjima qilingan ekan. Ammo u kishining qiziq suhbatlarini tinglaganman. Bir kun zavqlari kelib, Sharq adabiyoti haqida uzoq so‘zlab berdilar. Men ham Sharq kishisiman, o‘z adabiyotimizni yaxshi biluvchilardan sanalardim. Biroq u kishining bilimi oldida menikini hech desa bo‘lar edi. Qodiriy arab, fors, turk tillarini, klassik adabiyotni to‘la o‘rganib chiqqan, desam, balki yanglishmasman. Qur’on tafsirini, hind falsafasini shu kishidan eshitdim va “Sharq adabiyotining bilimdoni” degan fikr ko‘nglimdan kechdi”.



Bobomizga berilgan mazkur baho bizni ularning asarlariga va o‘tgan hayotlariga yana qayta murojaat etishga undadi. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanining “Yozg‘uchidan” debochasida: “Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo‘ydiq, bas, har bir yo‘sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o‘xshash dostonchiliq, ro‘monchiliq va hikoyachiliqlarda ham yangarishg‘a, xalqimizni shu zamonning “Tohir-Zuhra”lari, “Farhod-Shirin” va “Chor darvesh”lari va “Bahromgo‘r”lari bilan tanishdirishga o‘zimizda majburiyat his etamiz... Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar”, deb yozadi.

Asosiy mavzuga kirishishdan oldin asardagi “moziy” so‘zi haqida to‘xtalmoqchimiz. Xo‘sh, moziy nima o‘zi? Moziy – bu o‘tmish deganidir. Bizning o‘tmishimiz esa islom diniga va ko‘hna kitoblarga ham borib bog‘lanadi...

Debochada yozilgan “Tohir va Zuhra” rivoyati taxminan o‘rta asrlarda shakllangan. “Chor darvesh” yozma nasriy asar hisoblanib, Amir Xusrav Dehlaviy tomonidan o‘n oltinchi asrda yozilgan. Asarning hind yozuvchisi Mir Amman tomonidan soddalashtirib yozilgan varianti keng tarqalgan. Unda to‘rt darveshning boshdan o‘tgan sarguzashtlari va sevgi hikoyalari naql qilinadi. “Farhod va Shirin” Alisher Navoiy tomonidan 1484-yilda yozilgan. “Bahromgo‘r” dostoni Alisher Navoiyning 1484–1485-yillarda yozilgan “Sab’ai sayyor” asari bilan bog‘liq.

Romanning “Hasanalining hiylasi” faslida: “Bundagi farqni Yusuf-Zulayho qissalarini o‘qug‘an kishi biladir”, degan jumla bor. “Yusuf va Zulayho” qissasi Abdurahmon Jomiy tomonidan yozilgan. Ro‘mondagi “To‘y, qizlar majlisi” faslida: “Yel bilan o‘ynashib yong‘an sham nuri qizlarni allaqanday ajib holatga qo‘ymoqda, majlis ersa “Alif-Laylo” hikoyalaridagi “parilar” bazmini xotirlatmoqda edi”, degan so‘zlarni o‘qiymiz. “Alif va Laylo” “Ming bir kecha” ertaklari to‘plamida uchraydi.

Otam Habibullo Qodiriyni 1945-yil 28-may kuni hibsga olganlarida, uyimizdan quyidagi kitoblar olib ketilgan ekan: Sa’diy, Xondamir (“Ravzat us-safo”), “Ergashxon tarixi”, “Boburnoma”, Jaloliddin Rumiy (“Masnaviy”), “Bayoz” (bir nechta bayozlar), “Kalila va Dimna”, “Umar Xayyom” (ruboiylari), “G‘iyos ul-lug‘at” (bir necha jildlik), “Qomus” (turkcha, bir jildlik), Abu Ali ibn Sino falsafasi (qo‘lyozma, bir jildlik), Farididdin Attor (“Chor kitob”), Yusufxo‘ja Saryomiy (she’rlar to‘plami, 1-kitob), Qur’on kitoblari (turli davrlarda turli xattotlar tarafidan oltin hallar bilan yozilgan 8 dona. Bularning yozilishi o‘zi bir ajoyib san’at edi), Dehlaviy “Chor darvesh”, Xo‘ja Hofiz, Ibn Xaldun (tarix), “Qomus ul-lug‘at”(turkcha, 4 jildlik), Sahihi Buxoriy (2 jildlik) va Navoiy, Nizomiy, Firdavsiy, Bedil, Jomiy kabi shoirlarning juda ko‘p asarlari (jami ikki yuzdan ziyod kitoblar).

* * *

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasi raisi, muftiy Ziyoudinxon ibn Eshon Boboxon (1908–1982) hazratlarining xotirasi:

“Abdulla Qodiriy (Julqunboy) xalqimizdagi maqbul va mashhur bo‘lgan yozuvchilardandir. U qalami o‘tkir, ilm-ma’rifatga o‘ch, sohibi ilmlarni nihoyat ehtirom etuvchi shaxs erdi. 1929–1930-yillarda bo‘lsa kerak, Abdulla Qodiriy bilan bir necha o‘ltirishlarda birga bo‘lganman. O‘shal o‘ltirishlarning ba’zilari xotiramda yaxshi saqlangan.

Ko‘kaldosh madrasasi ortida bo‘yra sotuvchi Yusuf hoji ismli bir kishi bo‘lar edi. Bu kishini Bo‘yrachi hoji deb ham atashar, o‘zi ilm va adabiyotga muxlis, qiblagohimiz muftiy eshon Boboxon hazratlariga oshna, shul tufayli men ham ul kishiga yaqin erdim. Bir kuni yumush bilan shu Bo‘yrachi hoji do‘koniga kirsam, qozog‘istonlik bir olim kishi bilan (ismini unutdim) so‘zlashib o‘tirisharkan. Uchovlon suhbatimiz xiyla qizib ketdi. Gap Abdulla Qodiriy xususiga kelib to‘xtadi. Mazkur olim Abdulla Qodiriy bilan bir ko‘rishish orzusi borligini Bo‘yrachi hojiga izhor qildi. Bo‘yrachi hoji o‘zining Abdulla Qodiriy bilan yaqin oshnaligini aytib, agar istasalar shu kuniyoq ul kishining uyiga boshlab borishi mumkinligini bildirdi va yo‘lga otlandilar. Men ham, garchi toshkentlik bo‘lsam-da, o‘shal kungacha Abdulla Qodiriyni faqat asarlari orqali tanib, o‘zlarini ko‘rmagan va bir ko‘rishga ishtiyoqda yurardim. Bul tasodifdan foydalanib, men ham ularga hamroh bo‘ldim.

Peshin chog‘i yayovlashib Samarqand darvozadagi Abdulla Qodiriy bog‘iga chiqib bordik. Ochiq eshikdan boqqa kirdik. Bog‘, chamasi, tashqari hisoblanarkan, shekilli, kimsadan xoli ko‘rinardi. Bog‘ juda tartibli, oro berilgan, chetlariga qoziqtol ekilgan uzun ariqdan suv sharqirab oqar, o‘rta bir yerda ikki qavatli yangi shiypon qurilgan edi. Bo‘yrachi hoji bizni takallufsiz shiypon tagiga boshlab kirib, stullarga o‘tqazdi va o‘zi uy egasini chaqirgani ketdi.

Biz stol ustidagi kitoblardan olib o‘qib o‘tirdik. Yodimda, shul kitoblardan birining nomi “G‘iyos ul-lug‘at” deb ataluvchi qomus, shekilli, katta ko‘hna kitob edi. Biz undan ba’zi so‘zlarning mazmunini o‘qib angladik.

Bir vaqt Bo‘yrachi hoji oq qalpoq, oq ko‘ylak-lozimli, yalang‘oyoq, qop-qora bir kishi bilan so‘zlashib kirib keldi. U kishi biz bilan ko‘rishib, belbog‘iga qistirgan teshasini olib qo‘yib o‘tirgach, qozog‘istonlik mehmon bilan suhbatlasha boshladi. Men bul kishini biron xizmatchi yoki binokor usta bo‘lsa kerak, deb faraz qildim va ko‘nglimdan “Bul usta ham ilmdan boxabar kimsa ko‘rinadi”, degan andishani o‘tkazdim... Ular go‘yo bir-birlarini imtihon qilmoqchidek, arab adabiyoti bobida yarim soatdan mo‘l suhbat qildilar. Men suhbat uzulish bo‘lgan fursatdan foydalanib: “Abdulla Qodiriy bor ekanlarmi, keladilarmi?” deb so‘radim. Ul kishi kulib: “Hozir kelib qoladilar”, dedi va hammalari kulib yuborishdi. Bilsam, shul kishi Abdulla Qodiriy ekanlar. Biz borgan fursatda ul kishi o‘zlari ustachilik qilayotgan ekanlar...

Men ul choqlarda, garchi oz-moz ilmdan boxabar bo‘lib, arab-fors tillarini birmuncha bilsam ham, yosh (20-21 yoshlarda) erdim. Fikr yuritishlarim, yozuvchilik borasidagi aqidalarim ham yoshlarcha erdi. Shu kun, suhbat asnosi, fursati kelib, Abdulla Qodiriyga shunday savol berdim:

– Kechirasiz, odobsizlik bo‘lsa ham... Siz-ku, yozuvchisiz, hamma narsani ichingizdan to‘qib chiqarasiz. Shu holda mana bu “G‘iyos ul-lug‘at” singari eski kitoblarni mutolaa qilish sizga ne darkor?

Abdulla Qodiriy kulib dedilar:

– Yozuvchi hamma-hamma narsadan imkon boricha xabardor bo‘lmog‘i shart. Bilimsiz, xabarsiz, quruq ichdan to‘qiyverishlik, bu quruq yozuvchilikdir”.

* * *

Aytishlaricha, Shayx Alouddin Mansur Qur’oni Karimning o‘zbekcha izohli tarjimasiga kirishishdan oldin “O‘tkan kunlar”ni qirq martadan ortiq o‘qigan ekan. Shayx bilan bo‘lgan so‘nggi izdihomda yig‘ilgan ziyolilar o‘rtasida qatag‘onga uchragan jadidlarimizning asarlarini muqoyasalash boshlanibdi... Shunda u kishi hurmatli olimlarimizdan biri Bahodir Karimdan: “Siz qanday fikrdasiz?” deb so‘rabdi. Bahodir aka: “Imoni bor o‘quvchi, albatta, Abdulla Qodiriy asarlarini o‘qiydi”, degan ekan. Shayx janoblari esa: “To‘g‘ri javob!” deb munozaraga chek qo‘ygan ekan. Biz esa “Adabiyot – anavi ot birinchi keldi, boshqasi keyin keldi, deb baho beradigan, ot poygasi emas! Balki, u bir bog‘ bo‘lib, undagi har bir gulning o‘ziga yarasha isi bor”, deymiz.

* * *

Shoir Muhammad Ismoil bir suhbatda: “Ustoz, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov:

– Biz, bugungi ijodkorlar, Abdulla Qodiriy barpo etgan adabiyotning “ayvon”ida o‘tiribmiz, hali “uy”iga kirolganimiz yo‘q, – degandi”, deya hikoya qilgandi.

Biz qo‘liga qalam olgan har bir ijodkorga o‘tgan jadid bobolarimiz kabi bebaho Sharq adabiyotlari bilan “to‘yinib”, o‘sha adabiyot “ayvon”idan “uy”ga kirish baxtini tilaymiz. Ularni faqat qatag‘onga uchragani uchun e’zozlamay, e’tiborini ulug‘larimiz qoldirgan xazinalarga qaratishni so‘rab qolamiz. Xulosa qilib aytmoqchimizki, ular qoldirgan boy merosni yorqin fikr bilan o‘qib mulohaza yuritsak, albatta, hayot haqidagi tushunchalarimiz ham boyib boradi.

Sherkon QODIRIY



HAYOT ZARRASI VA ZARRA HAYOTI

Boshlanishi 1-sahifada.

Mening ilmiy ishim aynan shu yo‘nalishda. Bundan tashqari, asalari mahsuloti – propolis ham mikroblarga qarshi kurashuvchi, yara bitiruvchi xususiyatga ega.

Shu bois, biz sut achituvchi bakteriyalarni propolis bilan birlashtirib, oshqozon yarasini davolashga mo‘ljallangan preparat yaratdik. Bu loyiha keyinchalik yirik ilmiy ishga aylandi: biz milliy va xalqaro grantlarni qo‘lga kiritdik. Xususan, Islom taraqqiyot banki tomonidan loyiha yuqori baholanib, tadqiqotlarni davom ettirish uchun grant ajratildi. Shu asosda AQSH laboratoriyalarida izlanishlarni davom ettirdik. Keyinchalik kichik ishlab chiqarish korxonasi tashkil etildi. Bugun mahsulotimiz dorixonalarda sotilyapti.

Umuman olganda, olim uchun eng katta baxt ilmining amaliyotda foyda berishidir.

– Bir olimning kichik organizmlar borasidagi katta tadqiqotlari shunchalik natija beribdi. Buni butun boshli institut miqyosiga ko‘tarsak, yanada salmoqli natijalarni ko‘rishimiz shubhasiz. Bugun Mikrobiologiya instituti jamoasi qaysi sohalarda ilmiy ishlar olib bormoqda?

– Institutimizda mikroorganizmlarning bir nechta muhim yo‘nalishlarda qo‘llanilishi ustida izlanishlar olib boriladi.

Eng yirik yo‘nalishlardan biri – qishloq xo‘jaligi. Mikroorganizmlar o‘simliklarning o‘sishini rag‘batlantiruvchi fitogormonlar ishlab chiqaradi, urug‘larning unib chiqishini tezlashtiradi va tuproq unumdorligini oshiradi. Shu asosda turli ekinlar – g‘o‘za, bug‘doy va poliz mahsulotlari uchun biologik preparatlar yaratilmoqda. Shuningdek, ular zararli mikroorganizmlar va hasharotlarga qarshi kurashishda ham samarali vosita sifatida qo‘llanadi. Chorvachilikda esa foydali bakteriyalar yem tarkibini boyitib, hayvonlarning o‘sishini tezlashtirib, immunitetini mustahkamlaydi.

Ikkinchisi – inson salomatligi bilan bog‘liq tadqiqotlar. Hozirgi kunda mikroorganizmlarning inson organizmidagi o‘rni nihoyatda katta ekani aniqlangan. Ular nafaqat ovqat hazm qilish, balki immunitet, kayfiyat va boshqa fiziologik jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ichak mikroflorasini o‘rganish va uni boshqarish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda dorivor o‘simliklar bilan bog‘liq tadqiqotlar ham mavjud: olimlar o‘simliklar bilan simbiozda yashovchi mikroorganizmlar orqali dorivor moddalarni tez va samarali olish ustida ishlamoqda.

Uchinchi yo‘nalish – ekologiya. Mikroorganizmlar tuproq va suvni tozalashda muhim rol o‘ynaydi: ular pestitsidlar, og‘ir metallar va naft (neft) qoldiqlarini parchalashga yordam beradi, oqova suvlarni tozalashda ham qo‘llaniladi.

To‘rtinchi yo‘nalish – sanoatda mikroorganizmlardan foydalanish. Masalan, ayrim kimyoviy moddalarni, jumladan, akrilamidni mikroorganizmlar yordamida olish ekologik jihatdan xavfsiz va samaraliroq hisoblanadi. Bu borada sanoat korxonalari bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, naft qazib olishda mikroorganizmlar yordamida samaradorlikni oshirish yo‘nalishida ham tadqiqotlar mavjud.

Bundan tashqari, institutimizning markaziy yo‘nalishlaridan biri – mikroorganizmlar kolleksiyasini shakllantirish va saqlashdir. Ko‘p yillik ilmiy faoliyat davomida to‘plangan bu baza keyingi tadqiqotlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kelgusidagi asosiy maqsadimiz institutni innovatsion markazga aylantirishdan iborat. Ya’ni, ilmiy ishlanmalarni faqat laboratoriya darajasida qoldirmasdan, amaliyotga joriy etish va tijoratlashtirishni kengaytirishdir. Bugungi kunda dunyoda mikroorganizmlar “biologik fabrika” sifatida qo‘llanilmoqda – ular yordamida vaksinalar, insulin, oqsillar, bo‘yoqlar va boshqa ko‘plab mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Biz ham shu yo‘nalishni rivojlantirib, zamonaviy biotexnologiyalarni keng joriy etishni rejalashtirganmiz.

– Ilmiy ishlanmalar sanoat, farmatsevtika va qishloq xo‘jaligiga qanday tatbiq etilmoqda?

– Mikrobiologiya instituti o‘z ilmiy ishlanmalarini amaliyotga joriy etish borasida katta tajribaga ega va bu yo‘nalishda erishilgan natijalar bilan faxrlanishimiz mumkin. Bugungi kunda institut tomonidan yaratilgan ko‘plab preparatlar turli sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda.

Avvalo, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida bir qator samarali biologik preparatlar ishlab chiqilgan. Jumladan, “Fitobiosol” tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. “Mikroo‘stirgich” va “Mikrozim” preparatlari o‘simliklarning o‘sishini rag‘batlantiradi, xususan, urug‘larga ishlov berish orqali ularning unuvchanligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu preparat ayni paytda xorijiy davlatlarga ham eksport qilinmoqda.

Chorvachilik sohasida ham muhim natijalarga erishilgan. Masalan, “Trixostin” va “Probiokorm” preparatlari hayvonlar uchun yemni boyitadi, ularning o‘sishi va immunitetini mustahkamlaydi. Shuningdek, ozuqa sifatini saqlash uchun siloslash jarayonida qo‘llaniladigan preparatlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular ozuqa mog‘orlanishining oldini olib, ozuqaviy qiymatini oshiradi.

O‘simliklarni zararkunandalardan himoya qilishda ham mikrobiologik yechimlar joriy etilgan. Xususan, paxtachilikda katta muammo hisoblangan ko‘sak qurtiga qarshi “Ekobak” preparati ishlab chiqilgan. Ushbu mahsulot sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tib, amaliy qo‘llash uchun tavsiya etilgan.

Farmatsevtika yo‘nalishida ham muhim ishlanmalar mavjud. Masalan, oshqozon yarasiga qarshi “Lactopropolis” yaratganmiz. Bundan tashqari, foydali bakteriyalar asosida tayyorlangan “Probiomiks” qondagi shakar miqdorini kamaytirishga yordam beradi. “Probioker” esa oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilash, immunitetni mustahkamlash va umumiy sog‘liqni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Sanoat yo‘nalishida esa mikroorganizmlar kimyo sanoatida qo‘llanilmoqda. Xususan, akrilamid ishlab chiqarishda nitrilgidrataz fermentini hosil qiluvchi mikroorganizmlar – “Rhodococcus” avlodiga mansub bakteriyalar – samarali foydalanilmoqda. Bu usul kimyoviy jarayonlarga nisbatan ekologik jihatdan toza va iqtisodiy jihatdan samaraliroq hisoblanadi.

Umuman olganda, institutimiz ilmiy ishlanmalarni real sektor – qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika va sanoatga tatbiq etish orqali ilm-fan va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlab kelmoqda.

– Siz uzoq yillar Sut achituvchi bakteriyalar genetikasi laboratoriyasida faoliyat yuritgansiz. Ushbu yo‘nalishda so‘nggi yillarda qanday muhim natijalarga erishildi?

– Ma’lumki, inson organizmi mikroorganizmlar bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi va bu holat og‘iz bo‘shlig‘i hamda tomoq mikroflorasiga ham tegishli. Odatda, tomoq og‘riganda antibiotiklar yoki antiseptik vositalardan foydalanamiz, ammo bu jarayon foydali mikroflorani ham zararlaydi. Aslida, normal mikroflora organizmni kasallik qo‘zg‘atuvchilardan himoya qilib turadi.

Shu asosda biz tomoqdagi sog‘lom mikroflora tarkibidagi laktobakteriyalarni o‘rganib, ularning patogenlarga qarshi kurashish xususiyatlarini tadqiq qildik. Sog‘lom insonlardan ajratib olingan bakteriyalar asosida tomoq og‘rig‘ining oldini olishga mo‘ljallangan ashyo yaratish ustida ishladik va hozirda uning tarkibi shakllantirilgan, amaliy sinov bosqichida. Dastlabki natijalar bu vosita kasallikning boshlanishida samarali ekanini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, ichak mikroflorasining qondagi shakar miqdoriga ta’siri o‘rganilib, shu asosda maxsus probiotik preparat ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Yana bir muhim yo‘nalish – baliqchilik uchun probiotik ashyo yaratishdir. Hozirgi kunda ushbu soha jadal rivojlanyapti, ammo kasalliklar turi ham ko‘payib boryapti. Shu bois, baliqlarning immunitetini oshirish va kasalliklarining oldini olishga xizmat qiluvchi preparat ishlab chiqildi.

Laboratoriyamizdagi eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri “ichak–miya o‘qi”ni o‘rganishdir. Tadqiqotlar davomida gamma-aminomoy kislotasi ishlab chiqaruvchi sut achituvchi bakteriyalar ajratib olindi. Bu modda asab tizimini tinchlantiruvchi neyromediator hisoblanadi. Aynan shu yo‘nalishda autizm spektridagi bolalar mikrobiomi o‘rganilib, ularda foydali bakteriyalar kamayishi aniqlangan.

Kelgusida ushbu bakteriyalar asosida psixobiotik, ya’ni insonning ruhiy holatiga ta’sir qiluvchi yangi turdagi preparatlar yaratish rejalashtirilgan. Shuningdek, serotonin va dofamin ishlab chiqaruvchi bakteriyalarni o‘rganish orqali kayfiyatni yaxshilovchi vositalar ishlab chiqish ustida ham ish olib borilmoqda.

Mikroorganizmlarning imkoniyatlari nihoyatda keng. Bizning asosiy vazifamiz ularning salohiyatini ochib berish va inson salomatligi hamda iqtisodiyot rivoji yo‘lida samarali foydalanishdir.

– Sizlarning faoliyatingizni chinakamiga ignada quduq qazishga o‘xshatsa bo‘lar ekan. Ushbu sharafli va el-yurtga manfaatli ishlaringizda Siz va jamoangizga g‘ayrat-shijoat va unum tilaymiz!

Suhbatdosh: Vasila HABIBULLAYEVA

ILM VA IYMON MASKANI

Boshlanishi 1-sahifada.

Umumiy hisobda 63,2 gektar maydonni egallagan mazkur ziyoratgohning har bir qismi yagona me’moriy g‘oya asosida barpo etilgan. Peshtoqlar va ayvon devorlariga Qur’oni Karim oyatlari hamda “Sahihul Buxoriy”dan hadislar bitilgan. Hudud atrofi daraxtlar, turli butalar va gullar bilan ko‘kalamzorlashtirilgan. Uning markazida qad rostlagan muazzam masjid esa milliy me’moriy muhandislik namunasidir. Inshootga o‘ziga xos mahobat bag‘ishlab turgan moviy gumbazning diametri 19 metr bo‘lib, u ko‘zni quvnatadigan va qalbga osoyishtalik bag‘ishlaydigan naqshinkor tasvirlar bilan bezatilgan. Masjid bir vaqtning o‘zida o‘n ming nafar namozxonni qabul qilishga mo‘ljallangan. Ayollar uchun alohida bo‘lmalar mavjudligi esa ziyoratchilarga qo‘shimcha qulaylik yaratadi.

Masjid atrofida qad rostlagan to‘rt minora ham o‘zining 75 metrlik balandligi bilan kishini hayratga soladi. Uzoqdan yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan bu obidalar majmuaning ulug‘vor qiyofasiga salobat bag‘ishlab turibdi.

O‘tgan yuz yillar davomida ne-ne ulamolar bu muqaddas qadamjoga kelib-ketmagan deysiz. Hatto, XII asrda tarixchi Samaniy va XIV asrda yashagan sayyoh Ibn Battutalar Imom Buxoriyning maqbarasini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishgani haqida g‘ururlanib yozgan. Mana endi, bu baxt bizga nasib etib turibdi. Yo‘l boshchimizning aytishicha, maqbaraning umumiy balandligi 27 metrga teng. Naqshinkor devorlarini silarkanman, uni bezab turgan toshlar diqqatimni tortdi. Gulsimon naqshlar uchun umuman bo‘yoq ishlatmagan ekan. Sinchiklab nazar solsam, faqat tabiatda uchraydigan rangdor toshlardan tayyorlangan. Har bir naqsh mahorat bilan kesib olingan va quroq shaklida, ya’ni mozaika uslubida joylashtirilgan, har bir harakat avvaldan aniq va puxta o‘ylangani uchun ham mazkur san’at asari nihoyatda mukammal chiqqan.

Tashqi qismida Gretsiyaning mashhur marmari ishlatilgan bo‘lib, u dunyodagi eng oq “miramir”lardan biri sanaladi. Uning xususiyati juda qiziq: jazirama kunlarda ham past haroratni saqlab qoladi va bino ichiga quyosh tafti o‘tishini sezilarli darajada kamaytiradi. Afg‘oniston oq marmari esa shu mamlakat hukumati tomonidan maxsus sovg‘a sifatida taqdim etilgan. Masjidning ichki qismi va ustunlari uchun Turkiyaning Aran oq toshi tanlangan bo‘lib, unga milliy uslubda nafis naqshlar o‘yib ishlangan. Shuningdek, Finlandiya, Portugaliyadan keltirilgan qimmatbaho bezak toshlar majmuaga o‘ziga xos ko‘rk bag‘ishlab turibdi. Ayvon ustunlari uzoqdan qaraganda yog‘ochdan ishlanganga o‘xshaydi, aslida esa ular hindiy toshlardan yo‘nilgan va nozik milliy naqshlar bilan bezatilgan.

Press-tur davomida eng ko‘p e’tiborimni tortgan joylardan biri innovatsion muzey bo‘ldi. Turkiya bilan hamkorlikda barpo etilgan bu muzey 9 pavilondan iborat bo‘lib, Imom Buxoriy hazratlarining hayoti va boy ilmiy merosini zamonaviy usulda taqdim etadi. Muzeyda ulug‘ muhaddisning ilm izlab bosib o‘tgan hayot yo‘li, undan bizgacha yetib kelgan kitoblari, hadislarni yig‘ish va yozib olish jarayoni haqida batafsil ma’lumot beriladi.



Eng muhimi, bu muqaddas qadamjo avval bir kunda 12 ming ziyoratchiga xizmat qilgan bo‘lsa, hozir 65 ming nafar mehmonni xalqaro standartlarga mos tarzda qabul qilish imkoniyatiga ega. Bu esa endilikda Imom Buxoriy majmuasining katta ma’naviy va ma’rifiy markazga aylanganidan darak beradi.

Shahriyor SHAVKAT

TAXIR TARIX



YIG‘LATADIGAN LATIFALAR

Bilamizki, latifalar tinglovchini kuldirish bilan birga inson fe’lidagi illatlar, jamiyatdagi muammolarni satira bilan fosh etishni maqsad qiladi. O‘tgan asrning o‘ttizinchi yillaridagi qatag‘on muhitida quyidagi latifanamo gaplarni o‘qisangiz, xalqimiz tarixining achchiq va alamli bir davri ko‘z o‘ngingizda namoyon bo‘ladi. Ularda bayon etilgan aql bovar qilmas “jinoyatlar” bizni kuldirmaydi, aksincha, o‘ylatadi, mahzun qiladi, o‘tmishdan xulosa chiqarib yashashga da’vat etadi.

* * *

Xivaliklar ayronni “iyron” deyishadi. Shu bir so‘z uchun kimningdir o‘n yillik umri qamoqda o‘tganini bilasizmi?

Yozning issiq kunida manzili tomon odimlayotib, og‘zi quruqshagan yo‘lovchi bir uyning eshigini qoqib, suv so‘raydi. Eshikni ochgan kelin iltijoli tikilib turgan yo‘lovchiga “Iyronmi, choy?” deydi. Xursand bo‘lgan yo‘lovchi “Iyron yaxshi!” deydi baland ovozda. Uni shu kuniyoq hibsga olishadi, “Sen Eronni maqtabsan, chet davlatni ulug‘labsan!” degan ayb bilan unga o‘n yil qamoq jazosi beriladi.

* * *

Bog‘otning Nayman qishlog‘ida bo‘lgan voqea. Dala ishidan ochqab kelgan er ayolidan non so‘raydi. Ayoli “Non qolmabdi”, desa, er bechora osmasavatga qarab, “Ha, savatda non yo‘q” deb hafsalasi pir bo‘ladi. Devorning ham qulog‘i bor ekan. Uni ham darhol hibsga olishadi. “Sen “Sovetda non yo‘q”, deb aksilsho‘roviy targ‘ibot yuritgansan!” degan ayblov bilan u ham o‘n yilga “kesib” yuboriladi.

* * *

1936-yilgi saylovlarda sovet inqilobchilaridan biri Dimitriy Manjara degan kimsani Bog‘otdan nomzod qilib ko‘rsatishadi. Saylov arafasida odamlarga bir kilodan qand tarqatiladi. Dehqonbozorlik Islom traktorchiga qand yetmay qoladi va u kolxoz omborchisi yoniga adolat istab boradi. Omborchi diydiyolardan bezib ketgan ekanmi, traktorchining salomini ham olmasdan, “Ne gap?” deb dag‘dag‘a qiladi. Traktorchi dovdirab Manjara sharifini adashtirib yuboradi: “Anovi Mojaro tarqatgan qanddan menga yetmay qoldi”...

U gapini tugata olmaydi, “siyosiy faol” omborchi uni “Buyuk revolyutsionerlardan biri Manjarani masxara qildi”, deb tegishli idoraga chaquv beradi. Tamom, bechora Sibirga surgun qilinadi.

* * *

Sobiq tuzum davrida “sovet” so‘zi “sho‘ro” deb ham atalgan. Bu so‘zga uyqash “sho‘ra” so‘zi ham bo‘lib, u begona o‘tning nomi. Ayni shu ikki uyqash so‘z sabab umrining o‘n yilini Sibirda yog‘och kesib o‘tkazgan brigadir haqida eshitganmisiz? Unda eshiting.

Bog‘otning Qorayantoq qishlog‘ilik Madrim brigadir g‘o‘zalarni begona o‘tlardan tozalayotgan xotin-qizlar ishini nazorat qilishga keladi. Keksaroq kolxozchi ishlayotgan g‘o‘zaqator orasidan bir tup sho‘ra o‘simligini topib, uni yulib, boshi uzra ko‘tarib: “Sho‘rani nega yo‘qotmading?” deydi. Uning keyingi ayanchli taqdiriga shu birgina so‘z yetarli bo‘ladi...

* * *

Fransuz tilidan olingan “pioner” so‘zi “birinchi”, “boshlovchi” mazmunini beradi. Bu so‘z “kashshof” tarzida ham ishlatilgan. Keyinchalik bu so‘z shevada qisqarib “kashap”ga aylanadi. Ayollar, ko‘proq keksa kampirlar bo‘yniga qizil bo‘yinbog‘ taqib, yerga ursang osmonga sapchib, gap kor qilmaydigan qizchalarga: “Ay, kashap, o‘zingga qarab yur!” deb tergashlari odat tusiga kirgan. Hozirda ham Xorazmda kampirlar gapyuqmas qizlarni shu so‘z bilan chaqirishadi. Bu so‘z hatto haqoratga aylanib ulgurgan.

Qatag‘on zamonlarida matbuotda onda-sonda “pioner” so‘zini ahli qalam “kashshof” tarzida ishlatgan. Ammo uni qisqartirib, “kashap” ko‘rinishida ishlatgan ayollar mahkamaga tortilgan.

* * *

Kolxozlarning har bir brigadasiga bir nafar partiya a’zosi agitator sifatida biriktirilar, tashviqotchilar ko‘proq partiya a’zosi bo‘lgan o‘qituvchilardan tanlab olinardi. Qo‘shko‘pir tumanidagi “Leningrad” kolxozining 12-brigadasi tashviqotchisi Ro‘zmat Bekchonov navbatdagi ma’ruzasini “birinchi fazogir ayol Valentina Tereshkova Yer atrofini necha karra aylanib chiqqani” haqidagi xabar bilan boshlaydi. Bu paytda kolxozchi ayollar dalalarda qolgan so‘nggi ko‘raklarni terish bilan mashg‘ul edilar.


O‘qituvchi sovuq havoda qo‘llari ayozdan yorilib ketgan ayollarga xush kayfiyat bag‘ishlash uchun ma’ruzasida hazilnamo gap aytadi: “Kolxozimiz a’zolari har gektardan 34 sentnerdan xirmon ko‘tarishdi. Qolgan ko‘raklarni ham terib olsak, hosildorlik 40 sentnerga yetadi. Lekin ayrim dangasa ayollar kunlik normalarni bajara olishmayapti. U yoqda Tereshkova kosmik kemada Yer yuzini aylanar ekan, sizning ishlaringizni ham kuzatib turibdi. Ayrim ayollarning sustligini ko‘rib: “Men Tereshkovaman. Sharifim “terish” so‘zidan olingan. O‘zim borib terishishim kerakmi?” deyapti. Bu uyat emasmi sizlarga?” deydi. Bu so‘zdan terim charchatgan xotin-qizlar kulib yuboradilar. Ammo kechqurun agitator o‘qituvchi tuman partiya qo‘mitasiga chaqiriladi va “Birinchi kosmonavt ayol ustidan kulgani uchun” partiya bileti stolga qo‘yilishi talab qilinadi...

Ro‘zimboy HASAN

YOD ETIB

BOBURIYLARDAN BIRI

O‘zbek adabiyoti og‘ir judolikka uchradi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, taniqli adib, shoir va tarjimon Qamchibek Kenja 80 yoshida vafot etdi.



Qamchibek Kenja 1946-yilning 15-avgustida Andijon viloyatining Izboskan tumanida tug‘ildi. 1969-yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU)ning filologiya fakultetini tamomlagach, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Paxtakor”, “Xolis” kabi gazeta tahririyatlarida, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida turli lavozimlarda faoliyat ko‘rsatdi. Uzoq yillar O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Andijon viloyati bo‘limi rahbari sifatida viloyatda adabiyot, madaniyat va san’atni rivojlantirish, joylarda ilm-fan va kitobxonlikni keng targ‘ib qilish orqali xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish borasida samarali xizmat qildi. Yuzlab yoshlarga ustozlik qilib, ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarishda tashabbuskor bo‘ldi.

Qamchibek Kenjaning “Sog‘inch” nomli dastlabki she’riy to‘plami 1975-yilda e’lon qilindi. “Yashil barg”, “Sohilda”, “Yuz bermagan kor-hol”, “Baliq ovi” kabi dastlabki hikoyalari kitobxonlar va adabiy jamoatchilik tomonidan qizg‘in kutib olindi.

Adibning “Sohildagi suv parisi”, “Qizil gullar”, “Muhabbatni gunoh desalar”, “Sohibjamol ayol siri”, “Kulgibaxsh umr”, “Boburiylardan biri”, “Baxt qushi yoki ushalgan orzular”, “Xamir uchidan patir yoxud kulcha hikoyalar”, “Sevinchlarim va kuyinchlarim”, “Ko‘ngil kechinmalari”, “Palaxmon”, “Jasorat”, “Muhabbat badali”, “Mashaqqat va jasorat” kabi o‘nlab she’riy, nasriy va publitsistik kitoblari, qissa va romanlari adabiyot ixlosmandlarining ma’naviy mulkiga aylangan.

U Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan tashkil etilgan xalqaro ekspeditsiya a’zosi sifatida boburiylar va boshqa buyuk ajdodlarimiz izidan Afg‘oniston, Eron, Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Turkiya, Suriya, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Iroq kabi mamlakatlar bo‘ylab ijodiy safarlarda bo‘ldi. Ana shu safarlar taassurotlari asosida “Hind sorig‘a”, “Andijondan Dakkagacha”, “Buyuklar izidan”, “Andijondan Bag‘dodgacha”, “Buyuk Sohibqiron o‘tgan yo‘llarda” kabi badiiy safarnomalar bitdi. Uning ssenariylari asosida “Boburiylar izidan”, “Bobur salomi”, “Buyuk Bobur vorislari” nomli hujjatli-ommabop filmlar yaratildi.

Istiqlol yillarida birin-ketin dunyoga kelgan asarlari uning ijodiy qirralarini kashf etdi. Shoir va dramaturg sifatidagi asarlari, jamiyatning faol a’zosi o‘laroq o‘tkir publitsistik maqolalari, ocherklari yosh ijodkorlar uchun chinakam ibrat maktabi bo‘ldi. Boburiylar va ajdodlarimiz adabiy merosini targ‘ib qilishdagi xizmatlari uchun Bobur nomidagi xalqaro mukofotga munosib ko‘rildi.

Tarjimon sifatida A.Pushkin, H.Heyne, Sh.Petyofi, V.Bryusov, M.Svetlov, V.Firsov, Nazrul Islom kabi jahon shoir, yozuvchilarining she’r va dostonlari, nasriy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Qamchibek Kenja O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan uyushtirilgan anjumanlarda faol ishtirok etar edi. Viloyatning shahar va tumanlarida, chekka qishloqlaridagi adabiy uchrashuvlarda muntazam qatnashardi. U butun ijodini, vaqtini, bor imkoniyatini yurtga, Vatanga munosib xizmat qilishga bag‘ishladi.

Qamchibek Kenja umrining so‘nggi nafasigacha qizg‘in ijod qildi. Yaqinda yozuvchining o‘n jildlik “Saylanma” kitoblari nashr etilgan edi.

Ustozning adabiyotimiz va madaniyatimiz rivoji yo‘lidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U “Shuhrat” medali (1998), “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” (2006), “Mehnat shuhrati” ordeni (2016), “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” (2023) faxriy unvoni bilan mukofotlangan.

Taniqli adib, mehribon ustoz, samimiy va kamtarin inson Qamchibek Kenjaning porloq xotirasi hamisha qalbimizda.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

TALQIN



XAZINA



Zuhriddin ISOMIDDINOV

Tarjima jiddiy ish. Chunki har kuni bizga yetib keladigan axborotning yarmidan ko‘pi – tarjima. Biz o‘n asrlik tarjimachilik tajribasiga egamiz, kitobxonga qanday asarlarni taqdim etish, tarjima sifati hamisha diqqat markazida.

Biroq afsuski, yangicha iqtisodiyotga o‘tdik, deya istagan kimsaga nashriyot ochish, duch kelgan asarini bosib chiqarish imkoni berilgach, bozor olag‘ovuri bu sohaga kirib keldi, to‘s-to‘polonini chiqarib yubordi. Tarjimachilik o‘z tarixida hech qachon hozirgidek parokanda holda bo‘lgan emas. Chunki matbaachilarning maqsadi pul topish. Nimani tarjima qilish lozim, bu ishga qaysi ijodkorning uquvi bolta keladi, qaysi nashriyot yo‘nalishi shu tarjimaga mos – birovning ishi yo‘q. Har zamonda biron idora xorijlik qaysidir mashhur adibning yubileyi munosabati bilan buyurtma berib qolishini hisobga qo‘shmasak, bu yog‘i o‘zibo‘larchilik. Nashriyotlar qaysi asar tarjimasini bosishi haqida byulleten chiqarib, adabiy-ilmiy jamoatchilikni xabardor qilmaydi. Xabardor qilish tugul, yanagi oyda qaysi tarjimani bosib chiqarishini o‘zi ham bilmaydi. Ishqilib, chop etiladigan asar tez sotilsa bo‘lgani.

Har shaharda bitta-yarimta kitob do‘koni bor. Uni kimdir azbaroyi fidoyiligi, boshqa bir odam esa paypoq savdosida ishi yurishmagani uchun tavakkal ochgan. Hatto Toshkentning o‘zida rosmana kitob magazini o‘ntacha, xolos. Ularga kirsangiz, odamlar rosa kitobxo‘r ekanmi, deb suyunasiz. Aslida esa, atigi 300-500 nusxada chiqqan kitoblar birov sotib olmagani uchun turaverib, javonlarning belini mayishtirib yuborgan.

Bizga hozir qanday asarlar kerak? Eng zarurlarini tarjima qilyapmizmi? Yo chiqadigan kitob matbaachilarni boqsa kifoyami? Ajabki, ko‘p nashriyotlar “Boyish yo‘lida 18 qadam” tarzidagi aldam-qaldam narsalarni, “Kimyodan abituriyentlar uchun eng yangi test savol-javoblari” kabi o‘quvchining haqiqiy bilim olish yo‘lini to‘sadigan asarlarni bosishga tanda qo‘ygan. Chunki ular davlat boshqaruvida emas. O‘z kunini o‘zi ko‘radi. Shunday bo‘lgach, chinakam ilmiy, yo asl badiiy asarlarni emas, pul keladigan oldi-qochdilarni, har xil rivoyatlarni – o‘quvchi saviyasini yanayam pasaytiradigan narsalarni chop etishga o‘tib olishdi.

Holbuki, kitob – mafkura. Bu sohani “bozor” ixtiyoriga tashlab yuborsak, bugun to‘rt tiyinni tejab, ertaga to‘rt so‘mdan ajraydigan odam holiga tushamiz, bostirib keladigan mafkurasizlik, saviyasizlik xatarini go‘yo ko‘rmayotgandaymiz. Uni daf etish uchun bo‘lmag‘ur, ziyonli asarlarni bosaverishga chek qo‘yish, xalqimizga eng yaxshi asarlarni yetkazish darkor.

Nosog‘lom hayot tarzi patologiyaga olib kelganiday, hozir kitoblar soha va yo‘nalishlar bo‘yicha mutanosib ravishda emas, asosan ikki yo‘nalishda ko‘p nashr etilyapti. Birinchisi – diniy asarlar. Ular son-sanoqsiz, oqibat, to‘rtta diniy kitob o‘qigan odam o‘zini mufti sanab, fatvo beradigan bo‘lib qoldi, domlalar orasida ixtilof kuchayib, ijtimoiy tarmoqlarda bir-biriga haqorat yog‘dirish jo‘n ishga aylandi, bu esa muqaddas dinimiz obro‘siga putur yetkazishi aniq. Aslida esa, hamma ulamo bo‘lishi shart emas, ko‘pchilik kundalik mehnatiga andarmon bo‘lgani yaxshi. Eng yomoni, buncha diniy kitobning hammasi ham azbaroyi ilm deb emas, tez sotilgani bois paydarpay nashr etilyapti.

Ikkinchisi – turk tilini sal-pal o‘rganib olgan odamki bor, o‘zini ijodkor deb biladi, duch kelgan asarni o‘girib chop qildiradi. Telekanallar turk seriallariga ruju qo‘ygani kabi, noshirlar turk “bestseller”iga yopishvolgan. Asl ijodkorlar qolib, Ahmad Lutfi Qozonchi, Omina Shenliko‘g‘lu kabi yozarmanlarning asarlari to‘lib-toshdi. Unaqa “roman”lardan yana mingtasini tarjima qilib chop ettiring – o‘quvchining didi bir qarich ham o‘smaydi. Boshqa yaxshi asarlarning yo‘li to‘siladi ham.

Yodingizda bo‘lsa, o‘ttiz yilcha avval “O‘zbekistonni dunyoga tanitamiz” degan bir g‘oya o‘rtaga tashlandi, tanitish uchun har qanday vosita ma’qul deb topildi. Mamlakatni hech bir narsa sport va san’at kabi dunyoga tez tanita olmaydi, deya badiiy tarjimaga ham (san’at turi) “dunyoga tanitadigan vosita” deb qaraldi. O‘sha harakat zabti bilan kadrlar tayyorlashga ham kirishilib, oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek adabiyotini koreys, yapon, hind, ingliz... tillariga “badiiy tarjima qiladigan” bolalar o‘qitila boshladi.

To‘g‘ri, chet tilni yaxshi bilgan odam ikki kishi o‘rtasida tilmochlik qilishi, notiqning chiqishini ko‘pchilikka chiroyli yetkazishi mumkin. Texnika, dori-darmonlar yo‘riqnomasi, sayyohlik obidalari mazmunini ham ajnabiy tilda bersa bo‘ladi. Ammo badiiy asar... boshqa olam-ku? Har bir tilga o‘sha millat vakili badiiy tarjima qila oladi. Ha, o‘zga til namoyandasi undagi fikrni yetkazishi mumkin, biroq hissiyotni yuqtira olmaydi. Ya’ni, tarjima badiiy asar bo‘lib chiqmaydi. Bizdan ilgari ham o‘z asarini boshqa tilga o‘zi ag‘darishga uringanlar chuv tushgan. Masalan, gurji shoiri Nikoloz Baratashvilining 150 yilligi arafasida mashhur “Merani” she’rining eng yaxshi tarjimasiga tanlov e’lon qilinib, unda ikki yuzga yaqin shoir qatnashgan. Ajabki, eng bo‘sh, eng tuzsiz tarjimalar aynan gurji shoirlari ruschaga o‘girgan “Merani”lar bo‘lib chiqqan. Bu tabiiy. Inglizlar yapon tiliga, olmonlar farangchaga... hech biri o‘z asarini boshqa xalq tiliga tarjima qilgan emas. 150 yildan beri ruslar ham biron to‘rtlik yoki chastushkasini bizga tarjima qilib bermagan.

Bu urinish badiiy ijod tabiatiga xilof, tarjima san’ati mohiyatini tushunmaslikdan kelib chiqqan edi. Nihoyat, tarjimachilikni to‘g‘ri va ilmiy asosli yo‘lga qo‘yish uchun o‘zbek adiblari asarlarini boshqa tillarga o‘zimiz o‘girib taqdim etishday noilmiy, mantiqsiz ishdan voz kechishimiz kerak. Mana, o‘ttiz yildirki, aytarli natijaga erishmadik ham, har gal salkam jindek qoldi, deb o‘zimizni ovutamiz. Har yili yuzlab abituriyent “o‘zbek adabiyotini xorijiy tilga o‘giruvchi”likka qabul qilinyapti. Aytaylik, hozir bizda sakkiz tildan o‘zbekchaga tarjima qilinayotgan bo‘lsa, undan ham ko‘proq tillarga o‘zbek adabiyotini o‘girib berishni o‘ylayapmiz.

Aslida, bizning shoir-yozuvchilar zo‘r asarlar yaratsa, xorijliklarning o‘zi tarjima qilib oladi, majburan tiqishtirish shartmi? O‘ttiz yilda ham samara bermagan bu g‘ayriilmiy “tajriba”dan voz kechish vaqti kelmadimi?

Hamisha ona tiliga o‘girishni ustuvor deb bilaylik. Kimgadir kerak bo‘lsa, o‘zi o‘girib olaversin, egilib-bukilib o‘zimizni taqdim etmaylik.

Umri aziz-chi? O‘ttiz yildan beri shunday fakultet-u bo‘limlarda o‘qigan yuzlab yigit-qizning qay biri qaysi asarni qoyillatib o‘girdi, ne natijaga erishdi, kim aytadi? Yo‘q. Ularni behuda o‘qitmayapmizmi?

Yana. Ko‘p xorijiy ijodiy uyushmalar bilan imzolangan hamkorlik memorandumlari shunchaki xayrixohlik ramzi sifatida qog‘ozda qolmagani durust. Ulardan o‘sha xalq adabiyotining eng yuksak asarlarini saralab berishni so‘rasak, evaziga esa o‘zbek so‘z san’atining eng ulug‘ asarlari ro‘yxatini taqdim etsak, to‘g‘ri bo‘lar edi. Bu yog‘i – o‘sha yuksak asarlarni qalami ravon, sajiyasi baland mutarjimlarga topshirish, xolos. Ana shunda ikki elning o‘rtamiyona adiblari o‘zaro qadrdonlik evaziga birining asarini biri o‘girmay, badiiy yuksak, eng keraklilari tarjima qilinadi.

Tarjima – badiiy ijod. Mutarjimlar Yozuvchilar uyushmasiga a’zo ekanligi ham shuning dalili. Biroq tarjimon mehnatini rag‘batlantirishga kelganda to‘xtab qolyapmiz. Haliga dovur biron mutarjim “Xalq shoiri” yo “Xalq yozuvchisi” unvoni bilan siylanmagan. Mirtemir va Mirzakalon Ismoiliy – o‘zbek adabiyoti tarixida biri she’riy va yana biri nasriy asarlarni eng ko‘p va eng xo‘b o‘girgan bo‘lsa-da, o‘zbek badiiyatini yuksaltirishga bemisl hissa qo‘shgan bu ikki so‘z san’atkori e’zozlanmagan. Mirtemir tarjimalari uchun emas, balki yo‘qsullar dohiysining yuz yillik yubileyi arafasida “Lenin jilmayishi” poemasini yozibgina xalq shoiri bo‘ldi, Mirzakalon Ismoiliyga esa vafoti oldidan “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi” degan unvon berildi, ungacha olgani – urushdagi ordeni edi, vassalom. Xayriyatki, mustaqillik davrida, oradan o‘ttiz yil o‘tib, muz ko‘chdi – eng intellektual mutarjim Ibrohim G‘afurov “O‘zbekiston Qahramoni” bo‘ldi. Bu, albatta, hammamiz uchun bayram. Bunday onlarda umrini shu zahmat bilan o‘tkazgan Nabi Alimuhamedov, Rustam Abdurahmonov, Qodir Mirmuhamedov singari buyuk qalam ustalarining qadr topmay o‘tgani yodga tushadi. Xayriyatki, Ogahiy mukofoti ta’sis etilib, mohir mutarjimlarning ham ko‘kragiga shamol tegadigan bo‘ldi. Lekin bu mukofotdan qat’i nazar, “Yilning eng yaxshi tarjimasi” tanlovi o‘tkazilib, yaxshi asarlar munosib taqdirlab turilsa, yomon bo‘lmasdi.

Yaxshi tarjimon – noyob xazina. O‘nta ijodkordan bittasigina durust mutarjim bo‘la oladi. Lekin tarjima ustasi o‘zi paydo bo‘ladi, deb kutib o‘tirmay, mutarjim tayyorlashga kirishishimiz kerak. Yodimda, 1972-yil ToshDU va BokuDUning filologiya fakultetlari o‘zaro hamkorlik qilib, birinchi kursni bitirgan ikki o‘zbek filologi – Bokuga, ikkitasi esa Bokudan Toshkentga kelib o‘qishgan, uch yillik almashuv natijasida ozar tilidan o‘zbekchaga o‘giradigan ikki va o‘zbek adabiyotini ozar tiliga tarjima qiladigan yana ikki mutarjim paydo bo‘ldi, bugina emas, shu ikki xalq orasida do‘stlik aloqalariga jon-dili bilan ko‘shish qiladigan to‘rt mardum kamol topdi. Bu xayrli tashabbus o‘sha bilan barham yemay, hozirgacha davom etsa, bugun Bokuda o‘qigan yuz nafar va Toshkentda ta’lim olgan yana yuz nafar ijodkorga ega bo‘lardik. Ikki yuz emas, yigirmatasi kadr bo‘lib yetishsa ham, bu juda katta yutuq-ku! O‘sha almashuvga taqdirini bog‘lagan talabalar bugun xalqimizning asl do‘sti, so‘z san’atimizning targ‘ibotchisi. Chunonchi, O‘zbekiston mustaqilligi 33 yilligi tantanalarining leytmotivi bo‘lgan “O‘zbek kelayotir” degan she’rni boshqa birov emas, o‘sha ikki ozar talabaning biri Akif O‘zturk yozgan-ku! Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston kabi yana o‘n davlat universiteti bilan shunday ahdnomalar tuzilsa, qani edi! Holbuki, erkimiz o‘z qo‘limizda, talaba almashish uchun birovdan ruxsat so‘ramaymiz, ammo hanuz dadil qadam qo‘ya olmayapmiz.

O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo yirik bir davlat, turkiy dunyoning markazida joylashgan. Demak, turkiy tillararo tarjimani kuchaytirish birlamchi ishimiz bo‘lishi tabiiy. Buyuk Ipak yo‘li o‘rtasida joylashgan O‘zbekiston ana shu tariqa Tarjima markaziga aylansa, ne ajab? Buning dastlabki mujdalari bor ham: 100 jild rus adabiyoti namunalari chop etildi, 2022-yilda esa Prezidentimiz da’vati bilan 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari” to‘plami bosildi. Bu tashabbusni davom ettirib, 100 jildlik turkiy xalqlar folklorini nashr etsak, bu sohada yetakchilik mavqeyimiz mustahkamlanadi. Bu ish turkiy xalqlar ahilligini kuchaytiradigan muhim qadam bo‘ladi, chunki har bir elning dili, milliy ruhiyati eng avvalo og‘zaki ijodida – maqol-matal, qo‘shiq, ertak va dostonlarida aks etadi.

Tarjima ishida eng katta ishkal uni moliyalashtirish bo‘lib qoldi. Hozir tarjimon oila boqolmaydi. Qalam haqqi tirikchilikka kifoya qilsa, barcha muammo o‘z-o‘zidan hal bo‘ladi, mohir mutarjimlar yana safga qaytadi.

Sifatsiz kitoblar, bo‘lmag‘ur tarjimalar umumsaviyani tobora pastlatayotir. Bunga chek qo‘yish uchun nashriyotlar qo‘lyozmani taqrizga berish tartibini tiklashi kerak. Bu haqda ko‘p gapiriladi, ammo mablag‘ tejash uchun hatto musahhihlardan voz kechilayotgan, qo‘lyozma deyarli tahrir qilinmay bosilayotgan zamonda vaqt va pul talab qiladigan bu ishni xushlashlari dargumon. Ammo masalan, “Jahon adabiyoti” jurnali har bir o‘girmani chop etish oldidan taqrizga beradi. Bir jurnalcha ham bo‘la olmaydimi butun boshli nashriyot?

Tarjimalarga buyurtma yo‘q, mablag‘ ajratish ham shunga yarasha holda. Bu muammoni hal etish uchun “Tarjima fondi” ta’sis etilsa va uning qoshida “Tarjima san’ati” jurnali ochilsa, ma’qul bo‘ladi, nazarimizda.

Bu esa xalq ma’rifatini yanada yuksaltirish yo‘lidagi dadil qadamlardan biri bo‘ladi, nasib etsa.

OLAM OLIMI

ROJER PENROUZ

Qora tuynuk sirlarini oydinlashtirgan nobelchi



Fizika bo‘yicha 2020-yilgi Nobel mukofoti ikkiga bo‘lindi. Uning yarmi Rojer Penrouzga “qora tuynuklarning paydo bo‘lishi umumiy nisbiylik nazariyasining ishonchli bashorati ekanligini kashf etgani uchun”, qolgan yarmi esa Reynxard Genzel va Andrea Gezga “galaktikamiz markazida supermassiv ixcham obyektni kashf etgani uchun” berildi.

FAOLIYATI

Qora tuynuk – bu juda katta massaga ega bo‘lgan favqulodda zich kosmik obyekt bo‘lib, uning gravitatsiya kuchi shu darajada kuchliki, hatto yorug‘lik ham undan chiqib keta olmaydi. Shu sababli qora tuynuklar to‘g‘ridan to‘g‘ri kuzatilmaydi, balki uning atrof-muhitga ko‘rsatgan ta’siri orqali o‘rganiladi.

1964-yilda Rojer Penrouz qora tuynuklarni o‘rganishda yangi bosqichni boshlab bergan matematik yondashuvlarni ishlab chiqdi. U fazoviy vaqtning geometrik tuzilishini tahlil qilish orqali Eynshteyn nazariyasi doirasida qora tuynuklarning paydo bo‘lishi tasodifiy emas, balki koinot evolyutsiyasining tabiiy va muqarrar natijasi ekanligini ilmiy asoslab berdi.

KASHFIYOTLARI

Penrouzning eng muhim yutuqlaridan biri singulyarlik teoremalarini ishlab chiqqanidir.

Ushbu nazariyaga ko‘ra, muayyan fizik shartlar bajarilganda, gravitatsiya ta’sirida modda cheksiz zich holatga – singulyarlikkacha siqiladi. Bu esa fazo va vaqt tushunchalari o‘zining odatiy ma’nosini yo‘qotadigan chegaraviy holat hisoblanadi. Qora tuynuk markazida joylashgan singulyarlik bu hozirgi fizika qonunlari amal qilmaydigan hududdir. Bu yerda gravitatsiya cheksiz kuchayadi, vaqt va masofa tushunchalarini klassik fizika doirasida izohlab bo‘lmaydi. Shu sababli singulyarliklar zamonaviy nazariy fizikaning eng murakkab va yechilmagan muammolaridan biri sifatida qaraladi.

FAN RIVOJIGA TA’SIRI

Olimning tadqiqotlari nafaqat nazariy fizika, balki kosmologiya – koinotning kelib chiqishi va rivojlanishini o‘rganuvchi fan sohasiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning ishlari qora tuynuklar tabiatini tushunish, gravitatsion kollaps jarayonlarini tahlil qilish va fazoviy vaqt strukturasini o‘rganishda fundamental ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, Penrouz tomonidan ishlab chiqilgan nazariy modellar keyinchalik gravitatsion to‘lqinlar, qora tuynuklar to‘qnashuvi va koinotning global tuzilishini tadqiq qilishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi.

XULOSA

Rojer Penrouzning ilmiy faoliyati qora tuynuklar nazariyasi va kosmologiya rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Uning singulyarlik teoremalari va fazoviy vaqt geometriyasiga oid tadqiqotlari koinot tuzilishi haqidagi tasavvurlarimizni tubdan o‘zgartirdi. Shu bilan birga, uning ishlari zamonaviy fizikaning eng dolzarb muammolarini hal qilish yo‘lida muhim ilmiy asos bo‘lib, kelgusi tadqiqotlar uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

MILLAT FIDOYILARI

OG‘IR IZLAR

Mazkur maqola yozilishiga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, tarix fanlari doktori, professor Rustambek Shamsutdinovning “O‘zbekistonda sovetlarning qatag‘on siyosati va uning oqibatlari” nomli fundamental asari hamda “Jadid” gazetasida muntazam berib borilayotgan turkum chiqishlari turtki bo‘ldi. Arxivdan bugun biz hikoya qilmoqchi G‘ofur Qosimovning “ayblov” ishi yig‘ma jildini topib o‘rgandik.

G‘ofur Qosimov 1894-yili O‘sh shahrida dehqon oilasida tug‘ilgan, otadan erta yetim qolgan. 1897-yili oila Namangan shahriga ko‘chib keladi. G‘ofur olti yoshdan musulmon maktabida o‘qiy boshlaydi. 12 yoshida yangi usuldagi o‘zbek maktabida tahsilni davom ettiradi. 1908-yilgacha boylar qo‘lida xizmat qilib, asalari boqadi. Inqilobdan keyin Farg‘ona shahrida olti oylik qisqartirilgan pedagogik kursda o‘qib, Namangan shahridagi pedagogik kurslarda o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. Shundan so‘ng, Namangan shahar xalq maorifi bo‘limi mudiri bo‘lib xizmat qiladi. 1921-yil aprel boshlarida partiya safiga o‘tadi, o‘sha yili Namangan uyezd-shahar ijroiya komitetiga saylanadi va uyezd-shahar militsiya boshlig‘i, uyezd-shahar partiya komiteti mas’ul kotibi bo‘lib ishlaydi.

1922-yil bahorda Qoradaryodagi Kampirravot suv taqsimlovchi tizimning ishdan chiqishi oqibatida Andijonsoy va Shahrixonsoy kanallariga suv kelishi to‘xtab qolgan edi. Respublikada sug‘orish tizimlarini tartibga solish, yangi kanallar qazish muammolari 1923-yil 6-martda Toshkentda bo‘lib o‘tgan irrigatorlarning jumhuriyat kengashida ko‘rib chiqiladi. Kengashda faqat buzib tashlangan inshootlarni ishga solishgina emas, bu borada ilmiy-tadqiqot va loyihalash ishlarini olib borish, malakali mutaxassislar tayyorlash, suv masalasi bo‘yicha qonun ishlab chiqish zarurati ham keng muhokama qilinadi. Shu tariqa 1926-1927-yillarda Shahrixonsoy kanali qurilishi loyihalashtirilib, qurilish trestini boshqarish G‘ofur Qosimovga toshiriladi. Tez orada Farg‘ona oblasti Baliqchi rayonida sug‘orish ishlari tiklanib, Shahrixonda suv taqsimlovchi tarmoq ishga tushadi, suvni tartibga keltiruvchi 25 ta inshoot quriladi, loyiha doirasida Norin daryosidan suv ichadigan Yangiariq kanali qayta ta’mirlanadi.

G‘ofur Qosimov 1924-1925-yillarda Namangan uyezd-shahar “Qo‘shchi” soyuzi raisi bo‘lib ishladi. Shu yillarda 300 ming dehqon qishloq xo‘jalik xarakteriga ega bo‘lgan kooperativ va shirkatlarga a’zo bo‘ldilar. 1923-yili birgina Farg‘ona viloyati bo‘yicha 58 foiz paxta maydoniga chigit aynan shu shirkat va kooperativlar yordamida ekildi. Oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak hamda keng iste’mol mollari ham aholiga imtiyozli baholarda sotila boshlandi. 1923-yildan boshlab paxta yetishtirishdan olinadigan qishloq xo‘jaligi solig‘i bekor qilindi. Aslida, markaz tomonidan berilayotgan imtiyozlar sodda, oddiy o‘zbek paxtakorining arzimas pul hisobiga qaramligini oshirib, o‘lkada paxta yakkahokimligi kundan kun chuqurroq ildiz otishiga olib kelayotgan edi. Xususan, mehnat va mudofaa kengashining 1923-yil 4-avgustdagi qaroriga muvofiq, 10 million pud paxta va 3 million pud tolaning markazga olib ketilishi mazkur siyosatning amaldagi ifodasi bo‘lgan.

Paxta maydonining ko‘payishi don va boshqa oziq-ovqat ekinlarining kamayishiga olib keldi. Natijada, o‘lkada ocharchilik, qimmatchilik yuzaga kela boshladi. Masalan, 1923-yilda Farg‘ona vodiysida misli ko‘rilmagan qimmatchilik, ocharchilik yuz berdi. Bu holni bartaraf etish choralarini izlar ekan, G‘ofur Qosimov qardosh Ozarbayjon Respublikasi ilgari surgan “paxtani to‘liq ravishda Bosh paxta qo‘mitasiga emas, turli Xalq komissarliklari bo‘yicha tarqatish tashabbusi”ga xayrixohlik bildirdi. Keyinchalik esa Kavkazorti Federativ respublikalari o‘z paxtasini chetga – valyutaga sotish imkoniga ega bo‘lgani tinchini o‘g‘rilab, unda jiddiy norozilik uyg‘otdi.

Shu o‘rinda “Nima uchun Turkiston o‘lkasidagi Paxta qo‘mitasi o‘z hududiy mustaqilligi uchun kurashmadi, paxta yetishtirish va sotishda mustaqil siyosat yuritmadi?” degan o‘rinli savol tug‘iladi. Bu borada u qo‘mitaning aksariyati yevropalik bo‘lgan rahbarlari – jumladan, qo‘mita raisi I.Biryushev, o‘rinbosari N.Krishtal va a’zolari F.Dyujev, M.Nikolskiy hamda boshqa hududiy sarmoyadan manfaatdor bo‘lmagan shaxslar tufayli paxtani sotish masalasi amalda markazlashgan Bosh paxta qo‘mitasi ixtiyorida qoldirilgan, degan xulosaga kelgan. Shu bois, paxtachilik sohasi bo‘yicha mahalliy kadrlarni tayyorlash tashabbusi bilan chiqib, o‘zi ham 1928-1929-yillarda Moskvada Oliy partiya maktabi huzuridagi Oliy kolxozlar institutida tahsil olib qaytdi.



Shu davrlardayoq uning mustaqil fikr yuritishi va ayrim siyosiy masalalarda rasmiy qarashlardan farqli pozitsiyasi firqa chinovniklarining g‘ashiga tega boshlaydi. Xususan, mahbus qo‘rboshilarni ozod qilish haqidagi fikri uchun unga hayfsan beriladi.

1929-1930-yillari Namangan rayon paxta soyuzi raisi, 1930-1931-yillari Andijon okrug kolxoz seksiyasi raisi, 1932-yilda To‘raqo‘rg‘on rayon kolxoz soyuzining raisi bo‘lib ishlagan vaqtida G‘ofur Qosimov paxta yakkahokimligi respublikada turli salbiy oqibatlarga olib kelishini oldindan ko‘ra bilgani holda, respublikada ipakchilik sanoatini rivojlantirish taklifi bilan chiqadi. 1932-yil oxirida o‘sha vaqtda respublika rahbari Akmal Ikromov shaxsan o‘zi G‘ofur Qosimovni Toshkentga chaqirib olib, “O‘zbekipak” tresti direktori qilib tayinlaydi.

Bevosita uning sa’y-harakati bilan Farg‘ona shahridagi birinchi 56 qozonli pillakashlik fabrikasi faoliyati kengaytiriladi. 1927–1932-yillar davomida Samarqand, Buxoro va Marg‘ilon shaharlarida shunday fabrikalar qurilishi yakuniga yetadi. 1932-yildan ularda to‘la smenada ish tashkil etishga erishiladi. Shu asosda ipak tolasidan shoyi to‘qish tarmog‘i kengayib, Marg‘ilon, Namangan, Samarqand va Qo‘qon shaharlaridagi fabrikalarda 1937-yilga qadar tabiiy ipakdan turli xil mato-gazlamalar ishlab chiqarildi. Mahalliy xomashyoga asoslangan ushbu mahsulotlar ichki bozor barobarida xorijga ham chiqarildi.

Paxtaga qaraganda kam xarajat, kam mehnat talab qiladigan ipakchilik sohasidagi bu yutuqlar markazning paxta yakkahokimlik siyosatiga zid deb baholanib, qahramonimiz faoliyatiga nisbatan munosabatning keskinlashuviga olib keladi. Ayni shu ziddiyatlar kuchayib borayotgan bir sharoitda u faqat xo‘jalik va boshqaruv ishlari bilan cheklanib qolmay, ma’naviy-ijodiy izlanishlarga ham e’tibor qaratib, 1935-yilda “Yozi va Zebo” nomli sahna asarini yaratadi.

Biroq uning mustaqil qarashlari va amaliy faoliyati ko‘p o‘tmay siyosiy ayblovlar uchun asos sifatida baholanadi hamda taqdirida hal qiluvchi burilishga olib keladi. 1937-yil 5-avgust kuni G‘ofur Qosimov aksilinqilobiy tashkilot a’zosi sifatida ayblanib, Toshkent shahri Mayakovskiy ko‘chasi 7-uyda hibsga olinadi. 1937-yil 22-23-avgust kunlari tergov qilinib, undan avval “Nashri maorif” tashkiloti, keyin “Milliy ittihod” tashkilotining Namangan filialidagi faoliyati haqida so‘raladi. G‘ofur Qosimov jamiki tuhmat-u bo‘htonni keskin rad etadi.

Biroq “ayb”larni tan oldirishda har qanday qabihlik, jirkanch ishlardan toymaydigan NKVD xodimlari uni yaqindan bilgan, birga ishlagan shaxslarni tergovga tortadi. Shu zayl, “kerakli ko‘rsatmalar” qo‘lga kiritiladi. 1937-yil sentyabr oyining o‘rtalarida o‘tkazilgan tergovlar davomida bir necha shaxsdan olingan ko‘rsatmalarda 1920-yilda Namangan shahridagi Tatarskiy ko‘chasida joylashgan uylardan birida “Nashri maorif” tashkilotiga a’zolikka qabul marosimlari bo‘lib o‘tgani ta’kidlanib, G‘ofur Qosimov ham ushbu tashkilotga a’zo ekani haqida ma’lumotlar keltiriladi. Boshqa ko‘rsatmalarda G‘ofur Qosimov bilan yaqindan tanish shaxslar uni 1918-yildan boshlab aksilinqilobiy tashkilot a’zosi bo‘lgani, hatto Qo‘qon muxtoriyatini tashkil etish jarayonida faol ishtiroki haqida bayon qilishgan.

1937-yil sentyabr-oktyabr oylarida o‘tkazilgan navbatdagi tergovlarda bir necha shaxs G‘ofur Qosimovning partiya va sovet hokimiyati tizimida mas’ul lavozimlarda ishlagani, yuqori lavozimli shaxslar bilan yaqin aloqada bo‘lgani hamda ularning topshiriqlarini o‘z vaqtida va so‘zsiz bajarib kelgani haqida ko‘rsatmalar berishadi. Tergov jarayonida mahbus gumondor shaxslar bilan yuzlashtirilmagan, ularning “ko‘rsatma”lari qanchalik haqiqat yoki NKVD xodimlari tomonidan to‘qib chiqarilganini bilmagan G‘ofur Qosimov qiynoqlar, azoblar oqibatida “ayblar”ni tan olishga majbur qilingan.

Xavfsizlik xizmati katta leytenanti Miroshnichenko, 4-bo‘lim boshlig‘i Agabekov, bo‘lim yordamchisi Matveyev uni ayblash uchun, jumladan, quyidagicha xulosa tayyorlaydi: “1922-yilda tashkilot markazi rahbari Abdulla Karimov topshirig‘i bilan “Milliy ittihod” filialiga asos soladi. Filial a’zolari To‘raqo‘rg‘on va Chustda xonadonlarda o‘tkaziladigan “GAP” mehmondorchilikka to‘planib, yashirin yig‘ilishlar tashkil qilgan. Aholi o‘rtasida sovet hukumatini ag‘darish, o‘rniga islomiy davlat tuzishni, shariat va qozilik sudlarini tiklashni, ayollarning ozodlikka chiqishi, ularni jamiyatdagi ishtirokini cheklashga doir targ‘ibotlar olib borgan hamda bosmachilarga yordam qilishda faol ishtirok etgan...”

Tergov xulosasida u 1927-yildan aksilinqilobiy o‘ng og‘machilar guruhi tarkibiga kirgani, milliy masalaga doir antisovet harakatlarda ishtirok etgani va boshqalarni ham ushbu guruhga jalb qilgani, 1932-yildan esa rahbarlik lavozimida turib ipakchilik sohasida antisovet targ‘ibot olib borgani, uning rivojiga zarar yetkazgani hamda aksilinqilobiy tashkilotni ma’lumotlar bilan ta’minlab kelgani haqida ayblovlar keltirilgan.

Ayblov xulosasi NKVD uchligi tomonidan 1937-yil 1-dekabrda Oliy sud harbiy kollegiyasiga yuboriladi. Harbiy kollegiya sayyor sessiyasining 1938-yil 4-oktyabr kuni soat 12:15 da boshlangan majlisi atigi 20 daqiqa davom etadi. Mana shu qisqa vaqt ichida G‘ofur Qosimov otuvga hukm etilib, hukm o‘sha kuniyoq ijro qilinadi.

Tabiiyki, u qatag‘onga uchragan damdan boshlab oila barcha haq-huquqlardan mahrum qilinadi, “xalq dushmani”ning oilasi yoki farzandi tamg‘asi bilan uzoq yillar ta’qib ostida yashaydi. Bu paytda uning turmush o‘rtog‘i qaramog‘ida qolgan yetti nafar farzandi – besh qiz va ikki o‘g‘li bor edi. Ammo qatag‘ondan keyingi yillarda oila a’zolari tomonidan qilingan murojaatlarda ular haqida to‘liq ma’lumot uchramaydi. Ayniqsa, ayrim farzandlarning mutlaqo tilga olinmagani ularning taqdiri fojiali yakun topgani, ehtimol, qatag‘on yillarining og‘ir sharoitida vafot etgan bo‘lishi mumkinligidan dalolat beradi.

O‘ktamjon UBAYDULLAYEV,
Andijon davlat universiteti dotsenti



Agar tarixni bilmasangiz, demak hech narsani bilmaysiz. Siz qaysi daraxtda kurtak otganini bilmaydigan yaproqsiz.

Maykl KRAYTON

AZIZ XOTIRA



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Izzatulla Nigmatullayev – 1888-yili Buhoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. 2223-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan, jazo muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan. Atrofidagilar orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, SSSRdagi ocharchilik xaqida mish-mish tarqatganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan.

Shirmonqori Toshmatov – 1900-yilda Andijon shahrida tug‘ilgan. “O‘zbeksavdo”da ishlagan. 1931-yil 17-yanvarda hibsga olingan. Sayfi Kamolovning taklifi bilan “Milliy istiqlol” tashkilotining Andijon filialiga a’zo bo‘lgan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qaroriga ko‘ra, RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-,11-bandlari bilan ayblanib, 10 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 30-aprelda reabilitatsiya qilingan.

G‘afur Said – 1900-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. U boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan. 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olingan. To‘qqiz kishidan iborat “Milliy istiqlol” tashkiloti a’zolari bilan birgalikda milliy istiqlol g‘oyasini faol targ‘ib etganlikda, dehqonlarni shu tashkilot g‘oyalari ruhida tarbiyalashga da’vat qilganlikda, paxta ekin maydonlarini kengaytirishga qarshilik ko‘rsatganlikda, ommani sovetlarga qarshi targ‘ibot qilish guruhi a’zolariga topshiriqlar berganlikda ayblangan. RSFSR Jinoyat kodeksining 17-, 58-bandlari 4- va 10-qismlari bilan ayblanib, 10 yil muddatga konslager turmasiga tashlangan.

Najmiddin Sherahmedov – 1900-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingunga qadar aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olingan. “Milliy ittihod”ning a’zosi bo‘lib, Afg‘oniston konsulligi orqali savdogarlar orqali muhojirlar uchun pul yuborganlikda, Berlin shahridagi sovetlarga qarshi o‘quvchilardan tashkil topgan kolonnani qo‘llab-quvvatlaganlikda aybdor deb topilgan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 3- va 4-bandlari bilan ayblanib, 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasi tomonidan otuvga hukm etilgan. 1989-yili 28-martda reabilitatsiya qilingan.

Azizxon Xo‘jayev – 1905-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. VKP(b) a’zosi bo‘lgan. 1926-yili Berlin universiteti iqtisodiyot fakultetini bitirgan. Rus, turk, tojik, fors, ingliz, nemis tillarini mukammal bilgan. U Abdurauf Fitratning shogirdi bo‘lgan. 1926-yili Berlindan qaytib kelgach, Bokuda bir yil tahsil oladi.

Toshkentdagi “Millatchi aksilinqilobchilar” – Shohid Eson Musayev, Ismoil Sadri, Mirza Amin Muhitdinov va boshqalar bilan hamnafas bo‘lgan. Afg‘oniston, Eron va Xitoy konsulliklari xodimlari bilan doimiy muloqotda bo‘lgan.

1932-yil 20-oktyabrda OGPU Azizxon Xo‘jayevni 5 yil muddatga konslagerga hukm qilgan. U Belomor-Boltiq mehnat-tuzatuv lageriga 1933-yil 29-aprelida keltiriladi. Keyinroq 1934-yil 14-mayda OGPU – Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi tomonidan hibsga olinadi va Ichki ishlar xalq komissarligi Leningrad bo‘limi “Uchligi”ning 1937-yil 25-noyabrdagi 199-sonli bayonnomasiga binoan oliy jazo – o‘limga hukm qilinadi.

Hukm 1937-yil 8-dekabrda Lodeynopol lager okrugida ijro etilgan va bu haqida dalolatnoma tuzilgan. Azizxon Xo‘jayev 1958-yil 16-aprelda reabilitatsiya qilingan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).


JAHON AYVONIDA

FRANSIYA MUDOFAA XARAJATLARINI OSHIRMOQCHI



Fransiya 2030-yilgacha mo‘ljallangan harbiy rejalashtirish to‘g‘risidagi yangilangan qonun doirasida mudofaa xarajatlarini yana 39 milliard dollarga oshirmoqchi. Bu haqda Reuters xabar berdi.

Mazkur mablag‘lar mamlakat yadroviy arsenalini kengaytirish hamda raketa va dronlar zaxirasini ko‘paytirishga yo‘naltiriladi, deyiladi xabarda.



OY ATROFIDAGI SURATLAR E’LON QILINDI

AQSH Milliy aeronavtika va koinot boshqarmasi (NASA) “Artemida II” missiyasi ekipaji Oyning orqa tomoni bo‘ylab parvoz paytida olgan ilk fotosuratlarni e’lon qildi.

Oyning teskari tomoniga o‘tish yetti soat davom etdi. “Orion” koinot kemasi Oy yuzasidan taxminan 6400 kilometr balandlikda uchib o‘tdi. Astronavtlar Yerga nisbatan 406 771 km masofaga uzoqlashib, inson ishtirokidagi parvozlar tarixida yangi rekord o‘rnatdi.

TOSHQIN QURBONLARI

Afg‘onistonda mart oyining oxiridan buyon kuzatilayotgan kuchli yomg‘ir va suv toshqinlari oqibatida halok bo‘lganlar soni kamida 148 nafarga yetdi. Bu haqda “Tolibon” muvaqqat hukumatining favqulodda vaziyatlarni boshqarish agentligi xabar qildi.



Tabiiy ofat uy-joylarga ham katta zarar yetkazgan. Xususan, 139 ta uy butunlay vayron bo‘lgan, yana 657 tasi qisman shikastlangan.

MAJBURIY HARBIY CHAQIRUV

AQSH harbiylari Eron bilan urush ehtimoli fonida harbiy xizmatga chaqiruv jarayoniga jiddiy o‘zgartirish kiritdi.



Metro nashrining xabar berishicha, dekabr oyidan boshlab 18 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan layoqatli erkaklar harbiy xizmatga chaqiriluvchilarning zaxira ro‘yxatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri kiritiladi.

Harbiy ro‘yxatdan o‘tmagan erkaklar 250 ming dollargacha jarimaga tortilishi, qamoq jazosiga hukm qilinishi va boshqa jazolarga tortilishi mumkin.

TILBILIM

Temirmi, Temurmi yo Timur?

Qay birining yozilishi to‘g‘riroq? Amir Temur deymiz va barcha manbalarda shunday yozilgan. Shu bilan birga, Temir ismi ham ko‘p uchraydi. Umuman, Temur/Temir/Timur – turkiy xalqlar ichida eng ko‘p tarqalgan ismlardan biri. Hozirgi o‘zbek tilida kimyoviy modda, ma’danni – temir deymiz. Toshtemir, Eshtemir, Bektemir kabi ismlarda “temir” shakli qat’iy o‘rnashgan, ya’ni Toshtemur demaymiz. Keling, mulohaza uchun bu so‘zning o‘tmishiga bir nazar tashlab ko‘raylik.

Xoh ma’dan, xoh atoqli ot ma’nosida bo‘lsin, temir – turklar tarixida muhim o‘rin tutadi. Buni qarangki, ikki buyuk tarixiy shaxs: Chingizxon (Timujin) va Temur ham tug‘ilishdan shu nom sohiblaridir. Temir – bu mustahkamlik, chidamlilik, kuch-qudrat, iroda ramzi, shuningdek, qadimgi turklar zehniyati, turmush tarzi, mafkuralarida markaziy o‘rin tutgan bir unsurdir.

Ma’lumki, xunlardan to ko‘kturklargacha bo‘lgan davrda Chin imperiyasi (hozirgi Xitoy) bilan baqamti yashagan qadimgi turklarning ajdodlari Xitoy madaniyati ta’sirida bo‘lgan. Shu bois temir, kumush, oltin kabi ma’danlarning nomlari, mutaxassislarga ko‘ra, o‘rta chin (xitoy) tilidan qadimgi turk tiliga o‘zlashgan. Qadimgi turklar tuprog‘i – Qocho‘ (Gaochan), Turfan yerlarida yashagan turkiy qabilalar temir qazib olish, unga ishlov berishni yaxshi bilganlar. Bizningcha, qadimgi turklarning jangovar bir xalq bo‘lishida ularning temirchilik hunarlari ham muhim rol o‘ynagan. Deylik, qadimgi turklar temirni o‘zlariga “bo‘ysundirib”, undan qurol-yarog‘ yasashni bilmaganlarida, ehtimol, Ashina qavmi Turk xoqonligiga asos solmagan, turklar tarixda yirik davlatlar, imperiyalar qura olmagan bo‘lardilar. Shu bois tarix kitoblarida Temur otliq tarixiy shaxslar ko‘p uchraydi.

Tilshunos olim O.A.Mudrakning yozishicha, “temir” so‘zi etimologiyasi qadimgi chincha “temir narsa” ma’nosidagi “diēt-mwit” kalimasiga borib taqalib, uning turkchaga o‘tgan eski xitoycha shakli “diērmwur”dir. Hozirgi xitoy tilida esa “temir” – “tiě” deb talaffuz etilar ekan.

Eng qadimgi turkiy obidalarda ham “temir” ko‘p uchraydigan so‘zlardan biridir. Qizig‘i shundaki, VIII-X asrlarga oid Urxun-Enasoy, Turfan, Sharqiy Turkiston hududlarida topilgan yodgorliklarda bu so‘z ko‘proq “temir” shaklida yozilgan. “Древнетюркский словарь” lug‘atida mazkur davrga oid qadimgi turkiy obidalardan: “temir”, “temir asaq”, “temirchi”, “temirlig”, “temir qapig‘” kabi o‘nlab so‘zlar keltiriladi (DTS. Leningrad.“Nauka”.1969.551-bet).

X asrdan keyingi adabiy yodgorliklarda esa ma’dan nomi ham, atoqli ot ham asosan “temur” shaklida qayd etilgan. Xususan, XI asrga oid “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘atit turk”da bu so‘z – təmγr shaklida uchraydi. Mahmud Koshg‘ariy “Devon”da, shuningdek, “təmγrchi”, “təmγrlγg”, “təmγrgän” kabi so‘zlarni keltiradi va barchasida “təmYr” shakli saqlangan. Rabg‘uziy ham bu so‘zni “temur” shaklida yozgan. Ergash Fozilovning “Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века” lug‘atida keltirilishicha, XIV asr Xorazm adabiy muhitida ham bu so‘z – “təmγr” hamda “temγr” shakllarida qo‘llangan. Lug‘atda “Nahjul-farodis” asaridan shunday misol keltiriladi: “nətək kim təmurchinің kərγki təmγrnγң yamanlarыnы ketərγr” *(“Temirchining kuragi temirning yomonlarini kurab tashlaydi”. E.Fazilov.SUYA. II.T.1971.378-bet).*

Ovro‘palik missionerlar tomonidan XIII-XIV asrlarda tuzilgan, asosan qipchoq lahjasini o‘zida aks ettirgan “Kodeks kumanikus” lug‘atida bu so‘z “temir” shaklida uchraydi. Umuman, qipchoq va sibir lahjalarida bu so‘zning “temir”ga yaqin talaffuz etilishini ko‘rish mumkin (tatar, boshqird: timer; qozoq, qoraqalpoq, no‘g‘ay: temir; tuva: demir; hakas: timər, yoqut: timir; chuvash timər; mo‘g‘ul: təmər). Qarluq lahjasi, xususan, uyg‘urcha: tumur, eski o‘zbek adabiy tilida: temur; eski usmonli turkchasida: demur, ammo hozirgi Turkiya turkchasida: demir; ozarboyjoncha: dəmir; turkmancha: demir va hokazo.

Shuningdek, Temur ismini kirill yozuvida – “Timur” *(lotinda: “Timur”)* shaklida yozish an’anasi ham bor. Ma’lumki, Temur nafaqat turkiylar ichida, balki dunyo bo‘ylab keng tarqalgan ismdir. Shu bois “Timur” shaklini bu ismning “baynalmilallashgan” ko‘rinishi, deyish mumkin.

Shu o‘rinda Chingizxonning asl ismi – Temujin haqida ham ikki og‘iz so‘z: tarixdan ma’lumki, Yasugay Bahodir tatarlar boshchisi Temujin Uge ustidan qozonilgan g‘alaba ramzi o‘laroq o‘sha paytda tug‘ilgan o‘g‘liga shu ismni bergan. “Temujin” ismi ham “temir” ma’nosini bildiradi, deyiladi, ammo nega “temu-jin”, ya’ni so‘z oxiridagi “-jin” (“-chin”) qanday ma’noga ega? Bizningcha, bu so‘zning ikkinchi qismi ham xitoycha “metall” ma’nosidagi “jin” so‘zidir.

Guvohi bo‘ldikki, X asrdan to keyingi asrlargacha mintaqamizda, Sharqiy Turkistondan to Xorazmgacha bo‘lgan yerlarda, biz eski o‘zbek tili deb biladigan turkiy adabiy tilda ma’dan ma’nosida ham, atoqli ot ma’nosida ham “temur” shakli qo‘llanilgan ekan. Shimoliy turk tillari guruhi, xususan, qipchoq, sibir lahjalarida esa ko‘proq “temir” shakli saqlangan. Hozirgi o‘zbek tilini qarluq, qipchoq, o‘g‘uz va boshqa turkiy lahjalarni o‘zida birlashtirgan, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘rta turk tili deyish mumkin. Shu bois tilimizda bu so‘zning ikkala shakli ham mavjud va ikkisi ham bizga begona emas.

Abduvohid HAYIT

TARMOQLARDA NIMA GAP?

TOMOSHA VA ZIYORAT



Kuni kecha Panoramada namoyish etilgan “Amir Temur” filmini tomosha qilar ekanman, ko‘nglimdan ayrim fikrlar o‘tdi. Shuni o‘rtoqlashishga qaror qildim.

Bizda tomoshabin madaniyati bormi? Bundan bir necha yil avval “primadonna”miz zaldagi shovqinga munosabat bildirib, tomoshabinlarga xalaqit bermaslikka chaqirgan edi. O‘shanda hamma hojionani tanqid qilgan edi, ammo o‘shanda u to‘g‘ri tanbeh berdi.

“Amir Temur” filmi taqdimotida ham shu kabi noxushliklar bo‘ldi. Taqdimot 19:00 ga belgilangan edi. O‘z vaqtida boshlandi. Film namoyishi esa 19:28 da boshlandi. Menga ta’sir qilgani mana shu vaqtda ham odamlarning kirib kelishi bo‘ldi. Mayli, bunga ham chidash mumkin. Biroq 20:00 dan keyin ham odamlarning kirib kelishi, telefon chirog‘ini yoqib joylarini qidirish asnosida boshqa tomoshabinlarga xalaqit berishini qanday atash mumkin? Bunga ham chidaymiz.

Ammo yosh bolalarning ikki soat mobaynida yig‘lashlariga befarq bo‘lgan ota-onalarni madaniyatli tomoshabin deyish mumkinmi?

Ortimizda 10-15 yoshli o‘smirlar o‘tirishdi. Ularga filmning mutlaqo qizig‘i bo‘lmadi. Faqat bizga xalaqit bergani qoldi.

Bu kabi holatni nafaqat film tomoshasida, balki teatr va kontsertlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Qachon madaniyatli bo‘lamiz?

Agar noto‘g‘ri fikrda bo‘lsam, uzr so‘rayman. O‘sha kuni taqdimotda bo‘lganlar qanday fikrda?

(Ha, aytgancha, bu fikrlarning taqdimot tashkilotchilariga mutlaqo aloqasi yo‘q. Chunki bu ishda ularning aybi yo‘q).

Madaniy hordiq mavzusiga aloqador yana bir gap: 2011-yil Xitoyga borgan edim. Pekindagi Gugun (“Taqiqlangan shahar”) saroyiga olib borishdi. Chipta bilan birga qandaydir jihozni tutqazib, bu avtogid ekanligini tushuntirishdi. Bo‘ynimizga osib oldik va quloqchinni taqdik. O‘sha mashhur kinoda aytilganidek, “texnika mo‘jizasini ko‘rganman-u, ammo bunaqasini...” Bilasiz, gidlar sayyohlarning kayfiyatiga qarab, bilganlaricha ma’lumot berishadi. Agar sayyoh ko‘payib ketsa yo obyekt gavjum bo‘lsa, gidning gapi mutlaqo eshitilmaydi. Avtogid esa qulay ekan. Gugun saroyining qayeriga borsangiz, faqat o‘sha hudud haqida ma’lumot beradi. Moslamani til bilishingizga qarab moslab olasiz.

Mana, oradan shuncha yil o‘tibdi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarimizda bu kabi avtogidlar bor yoki yo‘qligidan xabarim yo‘q. Ammo qaysidir yili Samarqandga borganimda – Amir Temur maqbarasidagi ahvolni ko‘rib beixtiyor Pekindagi avtogidni esga olgandim. Chunki Amir Temur bobomiz maqbarasi sayyohlarning shovqin-suroniga to‘lib ketgan, gidlarning gapini deyarli hech kim eshitmasdi.

O‘shanda (avval ham yozgandim) “bizda ziyorat odobi yo‘q”, degan fikrga kelgandim. Axir ziyorat baqir-chaqir bilan emas, osoyishtalik bilan bo‘ladi.

Tarixiy shaharlarimizda avtogidlarni keng joriy qilish kerak demoqchiman. Eshitishimcha, tirik gidlar xorijlik sayyohlarga buyuk tariximiz haqida noto‘g‘ri ma’lumot bergan holatlar ham bo‘lgan ekan. Avtogidlarga esa tasdiqlangan ma’lumotlar kiritiladi. Demak, muammo bo‘lmaydi.

Sharofiddin TO‘LAGANOV
Facebook

JARAYON



MILLAT JAVOHIRI

Qodiriy ijodi milliy o‘zligimizni anglashga xizmat qiladigan nodir manba, avlodlararo ma’naviy ko‘prikdir.

Ana shunday ulug‘ meros sohibining xotirasini abadiylashtirish, uning boy ijodini keng targ‘ib etish maqsadida adib tavalludining 132 yilligiga bag‘ishlab “Turon” axborot-kutubxona markazida “Buyuk adib xotirasi” nomli madaniy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar, talabalar hamda Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o‘quvchilari ishtirok etdi.

Anjumanni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti Rahima Yusupova ochib berar ekan, jadid bobolarimiz tom ma’noda millat javohirlari ekani, ularning jasorati, og‘ir va tahlikali zamonda ham haqiqatni kuylashdan aslo chekinmaganini alohida ta’kidladi.

Xususan, adibning eng yirik asarlaridan biri – “O‘tkan kunlar” haqida so‘z borar ekan, O‘zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzayev shunday deydi:

– Bu roman yuksak badiiy tafakkur mahsulidir. O‘zini shu yurt farzandi deb bilgan kishi borki, bu asarni o‘qishi shart. Yosh avlod Qodiriy ijodi asosida milliy adabiyotimizning nufuzini yanada oshirish, uni jahon maydonida ko‘proq va kengroq namoyon etishga munosib hissa qo‘shishi lozim.

Zero, milliy qadriyatlarimiz – bu bizning o‘zligimiz, o‘zagimiz, tarixiy xotiramiz va kelajakka bo‘lgan ishonchimizdir. Qodiriy asarlarida ana shu qadriyatlar badiiy bo‘yoqlarda yuksak tasvirlanibgina qolmay, ularning mohiyati chuqur ochib beriladi. Oila muqaddasligi, vatanparvarlik, inson sha’ni va or-nomus kabi tushunchalar yoshlar qalbiga singdiriladi. Bugungi globallashuv davrida ana shu qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yosh avlod ongiga yetkazish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadbir davomida Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o‘quvchilari tomonidan tayyorlangan sahna ko‘rinishlari, kuy-qo‘shiqlar va milliy raqslar namoyish etildi.

Jamoliddin BADALOV

YANGI KITOBLAR

Nima uchun “It ovqat”?

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Respublika davlat mukofoti sohibi Ibrohim Rahim tavalludiga 110 yil to‘ldi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida taniqli adibning “Tanlangan asarlar”i nashr etildi. O‘z vaqtida yoshlar sevib mutolaa qilgan “Chin muhabbat” romani va “Hilola” qissasi (bu ikki asar 1958-yilda yozilgan), shuningdek, “Yoshlik qaytib kelmaydi” sarlavhasi ostida yozuvchining samimiy xotiralari ushbu kitobdan o‘rin olgan.

“Biz Quvadagi Soykeldi qishlog‘ining Sharqiy etagida yashardik, – deb yodga oladi yozuvchi. – Mahallamizni “It ovqat” deb ham atardilar. Uning nomi menga juda dag‘al, haqoratday eshitilardi. Nima uchun “It ovqat”? Buning tagiga yetolmay hayron bo‘lardim”. O‘z navbatida, bu gaplarni o‘qigan o‘quvchi ham hayron bo‘lishi turgan gap. Yana yoziladiki, “Jamoamizda “Bo‘zaxo‘r”, “O‘g‘ri boshi” degan qishloqlar bor edi. ...negadir xolam yashaydigan qishloqni “Besh tentak” deydilar”.

Darvoqe, yurtimizning ko‘hna qishloqlarini oralasangiz, bundan ham antiqa nomlarni uchratish mumkinligi hech kimga sir emas. Albatta, har bir nom va atamaning o‘z tarixi bor. Kitobda bayon etilgan atamalar ma’nosi esa uni o‘qigan o‘quvchiga ayon bo‘ladi.



“Ichida devi bor” odam

Evril Turon taxallusi bilan ijod qilgan taniqli yozuvchi Mamadali Mahmudovning “Tanlangan asarlar” to‘plamiga adibning ijodiy merosidan saralangan “O‘lmas qoyalar”, “Oynur” romanlari, “Bog‘don qashqiri” qissasi hamda bir qator hikoyalari, “Asov ot qismati” balladasi va ayrim publitsistik maqolalari kiritilgan.

Bu asarlarning aksariyati o‘z vaqtida muhim adabiy hodisa sifatida e’tirof etilganini ta’kidlash joiz.



“...O‘zaniga sig‘may, pishqirib oqayotgan daryo; baland tog‘larni kunpayakun qilmoqchidek hayqirib qirg‘oqqa urilayotgan asov to‘lqinlar; g‘ayrati vujudidan toshib ketayotgan, “ichida devi bor” odam – Mamadali Mahmudov (Evril Turon) endi o‘lmas asarlari ardog‘ida siz-u biz bilan, bizdan keyingi avlodlar bilan birga – hamnafas, hamfikr bo‘lib yashayveradi”, deyiladi Abdusaid Ko‘chimov tomonidan mazkur kitobga yozgan so‘zboshida.

Kitob adib tavalludining 85 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashrga tayyorlangan.

Nigina ISKANDAROVA

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 495
Shundan:
Kirill yozuvida – 7 024
Lotin yozuvida – 11 471
Media kuzatuvchilar – 81 772
Buyurtma: G – 440
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 66

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov
Navbatchi muharrir:
Akmal Jumamurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI